

DILMUROD XOLDOROV

HOZIRGI ADABIY JARAYON: O'ZBEK QISSALARI USLUBI

Uslubiy qo'llanma



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

DILMUROD XOLDOROV

HOZIRGI ADABIY JARAYON: O'ZBEK QISSALARI USLUBI

Uslubiy qo'llanma

37385

«Nodirabegim» nashriyoti

Toshkent — 2020

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI
AXBOROT-RESURS MARKAZI

UO‘K 633.511-631-5

КБК 37.231-2

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2019-yil 30-sentabrdagi yig‘ilishida 2-bayonnoma bilan nashrga tavsiya qilingan.

Mas’ul muharrir

Bahodir Karimov, filol.f.d., professor

Taqrizchilar

Islomjon Yoqubov, filol.f.d., professor;

Abdulla Ulug‘ov, filol.f.n. dotsent

Xoldorov, D.

Hozirgi adabiy jarayon: o‘zbek qissalari uslubi (Matn): uslubiy qo‘llanma. D. Xoldorov. — T.: Nodirabegim nashriyoti, 2019, 84 b. ISBN 978-9943-5222-3-7

Mazkur uslubiy qo‘llanmada o‘zbek qissalari tadriji, uning uslubiy o‘ziga xosligi, zamonaviy qissalardagi uslubiy yangilanishlar haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Normurod Norqobilov, Shoyim Bo‘tayev, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam va Shodiqul Hamrolar qissalari uslub jihatdan tahlil qilingan. Qo‘llanma barcha adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va adabiyot ilmi bilan shug‘ullanayotgan magistrantlar va «Hozirgi adabiy jarayon» fanini o‘qiyotgan talabalarga mo‘ljallangan.

UDK 633.511-631-5

BBK 37.231-2

ISBN 978-9943-5222-3-7

© Dilmurod Xoldorov, 2020

© «Nodirabegim» nashriyoti, 2020

KIRISH

POETIK MATNDA BADIY USLUBNING O'RNI

♦ Reja:

1. *Ijod jarayoni va uslubning umumiy xususiyatlari.*
2. *Ijodkor shaxsi va badiiy asar uslubi.*
3. *Uslub nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlar.*
4. *Uslubning tarkibiy qismlari.*

Tayanch soʻz va iboralar: *uslub, badiiy uslub, ijodkor uslubi, oqim uslubi, davr uslubi, poetik tafakkur, ritm – soʻz – garmoniya, badiiy-estetik idrok, ijodkor shaxsi.*

Adabiyotshunoslik tarixiga eʼtibor bersak, badiiy ijod tabiati, ijodkor shaxs dunyoqarashi, poetik tafakkur koʻlami, adabiy janrlar, badiiy tasvir vositalari, sanʼat asarida ijodkor shaxsining namoyon boʻlishi, voqelikni tasvirlash usullari, shuningdek, badiiy uslub haqida turli-tuman fikrlar mavjudligiga guvoh boʻlamiz.

Qadimgi yunon mutafakkiri Arastu «Poetika»sining «Tasvirlashning turli vositalari» deb nomlanuvchi qismida shunday fikr mavjud: «Baʼzi kishilar mahorat, baʼzilar malaka sababli, yana baʼzilar tugʻma isteʼdodlari tufayli boʻyoqlar va shakllar yordamida koʻp narsalarning tasvirini – oʻxshashini tasvirlaydilar. Hozirgina eslab oʻtilgan sanʼatlarning hammasida ham alohida yo ritm, yo soʻz va yoxud garmoniya yordamida, yoki shularning hammasi uygʻunligida tasvirlaydilar»¹. Arastu taʼrifiga koʻra, sanʼat asari hayotda mavjud voqea-hodisalarni badiiy-estetik idrok etish, ularning oʻxshashini turli vositalar yordamida aks ettirish orqali dunyoga keladi. Badiiy adabiyotda bu jarayon, shubhasiz, soʻz orqali amalga oshadi. Badiiy tasvirga yoʻnaltirilgan soʻz muayyan tartib, mantiqiy izchillik, poetik boʻyoqdorlikni talab etadi.

¹ *Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. 20-б.*

Shunday talablar majmuasi esa badiiy uslubni maydonga keltiradi. Ko'chirmada keltirilgan «ritm — so'z — garmoniya» uchligi badiiy uslubda istisnosiz tarzda bir-birini taqozo qiladigan, to'ldiradigan va uslub yaxlitligini tashkil etadigan o'zgarmas, zaruriy komponentlardir. Odatda ritm uslubning shakliga, so'z mazmuniga doir tushuncha bo'lsa, shu ikki tushunchaning mushtarakshakli, uyg'unligi garmoniyadir. Garmoniyaga ega bo'lmagan uslub chala yoki shakllanmagan uslub hisoblanadi. Shu o'rinda eng muhim birlik — garmoniyani tashkil etuvchi moya nima, degan haqli savol tug'iladi. Bu savolga javob bermasdan turib, badiiy uslubning poetik matndagi o'rni va vazifasini belgilash mumkin emas. Keltirilgan iqtibos diqqat bilan tahlil qilinsa, ushbu salmoqli so'roqqa berilgan javob unda aks etgani aniq ko'rinadi. Iqtibosning avvalgi jumlasida Arastu garmoniya, ya'ni mukammal, yaxlit uslubni yuzaga keltiruvchi moyaning uch shakli, ta'bir joiz bo'lsa, uchta darajasini keltirib o'tgan. Mavjudlikning o'xshashini dunyoga keltirish, boshqacha aytganda, badiiy aks ettirish, adabiyotda uning yagona materiali so'z orqali amalga oshirilgan ekan, so'zni istifoda etishning darajasi mahorat (ko'p mashq qilish), malaka (uzoq vaqt bir narsa bilan shug'ullanish) va iste'dodga bog'liq, — deydi Arastu. Bunday fikr o'z-o'zidan badiiy asar uslubida so'z san'ati ijodkori, muallifning o'rni va shaxsiyati masalasiga borib bog'lanadi. Istaymizmi yo'qmi, bundan qat'iy nazar, muallifning darajasi badiiy asar, demakki, badiiy uslub darajasini belgilaydi. «Uslub demak — odam demakdir»¹ degan fikr aynan shu jarayonda o'zining aniq mantiqiy ifodasini topadi.

Badiiy asar ustida qilingan uzoq va mashaqqatli mehnat, tinimsiz qayta ishlash jarayonlari malaka va mahoratni shakllantiradi, o'ziga xos uslubni barpo etadi. Boshqalarning xayoliga ham kelmagan badiiy kashfiyotlar, estetik qamrovning tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada kengligi, tasvirning favqulodda o'ziga xosligi, estetik idealning samoviyiligi, obrazlar talqinidagi originallik malaka va mahorat bilan birga ilohiy iste'dodning mavjudligidan dalolat beradi.

¹ Bu haqda qarang: *Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза.* — Тошкент: Фан, 1973.

«Sharq mumtoz poetikasi»da ham muallif shaxsi, badiiy asar uslubi garmoniyasi eng yaxshi badiiy asar yoxud iste'dodning sharti sifatida tushuntirilgan. Arab allomasi Bishr ibn Mu'tamirning: «Agar tiling ravon, qalaming o'tkir, bayoning yetuk, lafzing lutfli, iqtidoring tugal, fahm-farosating nozik bo'lsa, xoslar uchun yozganing ommaga ham tushunarli bo'lsa va omma uchun yozganing xoslar uchun g'aliz qo'pol ko'rinmasa, buning uchun so'z va iboralarda mo'tadil, o'rta yo'lni topa olsang, **tom ma'noda iste'dod sohibidirsan**»¹ (ta'kid bizniki, – D.X.), – degan fikrlari shu jihatdan diqqatni tortadi. Kitobning nomlanishiyoq «Sino'at -u-l-insho'», ya'ni «yozish san'ati» degan ma'noni bildiradi. Yuqoridagi parchada badiiy matnni yuzaga keltirish jarayonida nimalarga rioya qilish, qay tarzda va qanday yozish, yozishga bel bog'lagan ijodkorning shaxsiy fazilatlarini qanday bo'lishi, bayon etikasi, so'z tanlash kabilarning barchasi bir nuqtaga, ya'ni iste'dodga kelib tutashadi. Bunday fikr badiiy asar tili va uslubining ijodkor shaxsi bilan chambarchas bog'liqligini yana bir bor ta'kidlaydi. Demak, mukammal badiiy asar faqat fikrning yangiligi bilan emas, tilning ravonligi, bayonning yetukligi (tushunarli, mantiqan izchilligi, soddaligi va ravonligi), ifodaning nozikligi (badiiy bo'yoqdorlik), yozuvchi fahm-idroki, tabiatining adibga xosligi bilan belgilanadi.

Ijodkor shaxsi va badiiy asar uslubi mushtarakligi masalasiga Sharq va G'arb poetikasining qadim davrlaridanoq jiddiy e'tibor qaratilgan. Badiiy ijod garmoniyasini tashkil etuvchi asos sifatida ijodkor shaxsi, dunyoqarashi va tabiati olingan. Bu borada ikki qutb mutafakkirlarining qarashlari anchayin yaqin bo'lgan.

Gegelning «Estetikadan ma'ruzalar» asarida so'z san'ati va ijod jarayoni haqida fikr yuritilar ekan, tarixiylik va zamonaviylik, adabiy turlar, xalq tili va xalq ijodiyotining uslub bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Shular bilan bir qatorda uslubga xos «nafislik, ravonlik va ta'sir samaradorligi»ga asosiy e'tibor qaratiladi. Buni yozuvchi g'oyasi va maqsadining markaziy ifoda vositasi deb ko'rsatiladi². Bu

¹ *Бишр ибн Муътамир*. Синоъат -у-л-иншоъ. Мумтоз шарқ поэтикasi. Нашрга тайёрловчи Х. Болтабоев. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.

² *Гегель*. Лекции по эстетике. Книга третья. Перевод П.С. Попова. – Москва: Издательство социально-экономической литературы, 1958.

o'ringa *nafislik* tushunchasi uslubning badiiy vositalar (so'z tovlanishlari, tasvir vositalari, til qoidalariga rioya qilish) bilan naqadar mustahkam aloqada bo'lishini ta'kidlab kelsa, *ravonlik* uslub shakliy komponentlari garmoniyasini, *ta'sir samaradorligi* esa mazmun va g'oyaning yuqori bo'lishini, bir so'z bilan uslub semantikasini bildiradi. Mana shu kichik ko'chirma ham Gegelning badiiy asar butunligini ta'minlashda Arastu qayd etgan uyg'unlik (garmoniya) asosiy o'ringa ekani qayd etiladi.

Zamonaviy G'arb va Sharq adabiyotshunosligiga doir qarashlarni ma'lum darajada sintez qilishga muvaffaq bo'lgan Abdurauf Fitrat o'zining «Adabiyot qoidalarini» darsligida «Uslubning umumiy va xususiy hollari» degan sarlavha ostida badiiy uslubga doir qator masalalar xususida to'xtaladi. Uslubning xususiy jihatlari o'laroq, Sharq mumtoz adabiyotida uzoq tajribadan o'tgan badiiy san'atlarni qayd etsa, umumiy jihatlari sifatida tuzuklik, soflik, ohang ochiqligi, uyg'unlikni ko'rsatadi. Albatta, bu o'ringa olimning badiiy ijodga xos ikki asosiy tur doirasida fikr yuritganini nazarda tutish joiz. Fitratgacha bo'lgan o'zbek adabiyotida ko'proq lirik tur asosida ish ko'rilgani sababli Sharq mumtoz she'riyatida ming yillardan beri istifoda etib kelingan badiiy san'atlarning uslub markaziga qo'yib o'rganilishi tabiiydir. Biroq shunga qaramasdan, Fitratning badiiy san'atlarni har uch adabiy tur doirasida muayyan poetik vazifa bajaradi, degan fikri o'zini oqlaydi.

Abdurauf Fitrat badiiy uslub haqida o'z nazariy qarashlarini bayon etishda tarixiy zamon(davr), tarixiy makon (milliylik), shaxs va adabiy shakl o'zgarishi bilan uslubning ham turli ko'rinishlari namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi. Mustaqil, o'ziga xos uslubning maydonga kelishida iste'dod va mahoratning o'rnini ta'kidlaydi. Olimning: «Butun o'zbek yozg'uchilarining ifodalari o'zbekcha bo'lg'ani holda har birining o'ziga maxsus bir uslubi bordir. Biroq, uslubdag'i bu hol tuban, kuchsiz adib-yozg'uchining asarlarida o'zini ochiq ko'rsata olmaydir.

Kuchsiz yozg'uchilarning uslublari bir-biriga o'xshab qoladir. Ular oddiy uslubda, umumiy til uslubida yozadir. Shoir-yozg'uchi san'atkorlikda ko'tarila borg'ansayi(n) o'ziga maxsus bir uslub yarata

boshlaydir»¹, — degan fikrlari hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan.

Rus adabiyotshunosi V. Jirmunskiyning fikriga ko‘ra: «Badiiy asar uslubi faqat uning tiliga oid hodisa emas, balki tasvir vositalari, badiiy so‘z orqali ifodalangan badiiy asarning mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi kabi unsurlariga ham taalluqlidir»². Olim qarashlarida yuqoridagi fikrlarga nisbatan bir qadar badiiy asar strukturasi tomon kirib borish, konkretlashish bor. Badiiy asar va uslub masalasini struktur jihatdan konkretroq olib qaraydigan bo‘lsak, olim sanab o‘tgan barcha poetik komponentlar uslub originalligi va yaxlitligini ta‘minlovchi vositalar ekani aniq bilinadi. Birinchidan, asar mavzusining nimaga, kimga va qaysi davrga qaratilgani uslubga ta‘sir etmasligi mumkin emas. Tarixiy asar uslubi bilan zamonaviy mavzudagi asar uslubi orasiga tenglik alomatini qo‘yib bo‘lmaydi.

Akademik M.B. Xrapchenko ta‘kidlaganidek: «Uslub — ijodkor hayotni chuqur o‘zlashtirishi orqali to‘plagan nozik va qiziqarli kuzatishlarini sintezlab, ifodalab berishdir. Uning mukammalligi va qanchalik ko‘lamga egaligi ijodkorning borliqni anglashdagi idrokiga va ifoda uslubiga bog‘liq»³. M.B. Xrapchenkoning qarashida muallif shaxsi va dunyoqarashiga asosiy e‘tibor qaratilayotgani ko‘zga tashlanadi. Olim bu bilan ijodkor borliqni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, uni shu holda ko‘rsatib beradi, demoqchi emas. Balki yozuvchining dunyoqarashi badiiy asar shakli va mazmunining qay tarzda namoyon bo‘lishini belgilovchi asos ekanini ta‘kidlamog‘chi.

Uslub nazariyasi qadimiy va o‘ta murakkab muammolardan bo‘lgani bois har bir davr bu muammoga o‘ziga xos tarzda

¹ *Фитрат А.* Услугбинг умумий ва хусусий ҳоллари // Танланган асарлар. 4-жилд, дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи проф. Ҳ.Болтабоев. — Тошкент: Маънавият, 2006, 17-б.

² *Жирмунский В.* Стихотворение Гёте и Байрона: Ты знаешь край?.. Изд. МГУ. 1961. с. 29

³ *Храпченко М.Б.* Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. — Москва: Советский писатель. 1975. с. 9.

munosabat bildirib kelgan. Uslub davr bilan o'zgargan. Bu holatning yuz berishiga asosiy sabab har bir davr kishilarining hayot voqeligiga munosabatlari, san'at va badiiy so'z bilan kechgan muloqotlari, muhimi ijtimoiy til xususiyatlari turlicha bo'lganidadir.

Uslub mamlakat va millatga qarab ham o'zgaradi. Agar Yevropa adabiy muhitida Gomer davri, Shekspir davri, Gyote davri, Stendal va Balzak davri, Joys davrlarini uslub jihatidan tekshirilsa, bir-biridan farqlanuvchi jihatlari, badiiy voqelik sifatida jiddiy ayirmasi borligi anglashiladi. Ammo bir butun holatda olganda Yevropa xalqlari badiiy uslubining Sharq xalqlari badiiy uslubidan o'zgacha ekani ko'rinadi. Hatto turkiy xalqlar adabiyotini shu nuqtai nazardan o'rganganimizda ham, o'zbek, qozoq, turkman, turk, ozarbayjon adabiy uslublariga xos xususiyatlar borligiga amin bo'lamiz.

Yuqoridagi kuzatishlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, bularning barchasini umumlashtiruvchi, mujassam tarzda ifodalovchi uchta eng muhim element bor. Bular, birinchidan, barcha adabiy oqim va yo'nalishlarni, barcha tur va janrlarni qamrab oluvchi muallif shaxsi, ikkinchidan, muallif dunyoqarashining mahsuli bo'lgan yaxlit badiiy asar, uchinchidan, badiiy so'zning asosi bo'lgan uslubdan iborat bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Hozirgi adabiy jarayondagi yangilanishlar mohiyatini tushuntiring.
2. Uslub haqida Sharq va G'arb nazariyotchilarining fikrlari haqida nimalar bilasiz?
3. Uslubni tashkil etuvchi asosiy moya nima?
4. Uslubning adabiy oqimlar va davrlararo farqlanishini qanday anglaysiz?
5. Uslub komponentlarining o'zaro farqlarini tushuntiring.
6. Muallif shaxsi va badiiy asar uslubi tushunchalarini izohlang.

Test:

1. *«Ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini — o'xshashini tasvirleydilar».* Fikr muallifini toping.

- A. *Arastu;
B. Platon;

C. Gegel;

D. Ibn Sino.

2. «*Uslub demak – odam demakdir*». *Fikr muallifini toping.*

A. *Byuffen;

C. Gegel;

B. Beruniy;

D. Arastu.

3. «*Sino‘at -u-l-insho‘*» *asarining muallifi.*

A. * Bishr ibn Mu‘tamir;

C. Beruniy;

B. Ibn Xalil Ahmad;

D. Farobiy.

4. «*Adabiyot qoidalari*» *kitobining muallifini belgilang.*

A. *A. Fitrat;

C. I. Sulton;

B. A. Sa‘diy;

D. A. Avloniy.

5. «*Estetikadan ma‘ruzalar*» *asarining muallifi.*

A. *Gegel;

C. M. Xrapchenko;

B. V. Jirmunskiy;

D. Baxtin.

6. «*Poetika*» *asarining muallifini toping.*

A. *Arastu;

C. Gegel;

B. Farobiy;

D. Platon.

Адабиётлар:

1. *Arastu*. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
2. *Бахтин М.М.* Вопросы литературы и эстетики. — Москва: Художественная литература, 1975.
3. *Белинский В.Г.* Собрание сочинений. т.3. — Москва: 1978.
4. *Бобоев Т.* Адабиётшунослик асослари. — Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
5. *Болтабоев Н.* Наср ва услуб. — Тошкент: Фан, 1992.
6. Гегель. Лекции по эстетике. Книга третья. Перевод П.С.Попова. — Москва: Издательство социально-экономической литературы, 1958.
7. Мумтоз Шарқ поэтикаси. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
8. *Фитрат А.* Услубнинг умумий ва хусусий ҳоллари // Танланган асарлар. 4-жилд. — Тошкент: Маънавият, 2006.
9. *Храпченко М.Б.* Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. — Москва: Советский писатель, 1975.
10. *Қодиров П.* Халқ тили ва реалистик проза. — Тошкент: Фан, 1973.

O'ZBEK QISSALARINING USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI

◆ Reja:

1. *Qissaning janriy xususiyatlari.*
2. *O'zbek qissalari genezisi.*
3. *O'zbek qissalarining taraqqiyot bosqichlari.*
4. *A. Qodiriy, G'.G'ulom, A. Qahhor uslubidagi an'anaviylik va yangilik.*

Tayanch so'z va iboralar: *qissa, povest, roviy, poetik fikr, xalq kitoblari, Sharq mumtoz qissachiligi, sho'ro qissachiligi, noan'anaviy qissalar.*

Bugungi kunda jahon nasri maydonida o'ziga xos o'rin tutadigan o'zbek qissanavisligi jahon adabiyotshunosligining qissa (Biz bu o'rinda faqat Sharq va rus adabiy otini nazarda tutdik. Chunki, Yevropa adabiyotidagi sanoqli (Gofman, Valter Skott, Kuper) asarlarni aytmasak, qissa janri mavjud emas, — D.X.) nazariyasiga doir to'xtamlariga hamohanglik kasb etishi bilan birga bu jarayonga yangilik bo'lib qo'shiladigan jihatlariga ham ega.

Qissa janri uzoq adabiy-tarixiy jarayonni bosib o'tgan, badiiy mukammallik kasb etgan janr hisoblanadi. Qissada aytilishi lozim bo'lgan poetik fikr har doim janrning ma'lum bir «vakili» tilidan hikoya qilinadi. Binobarin, qissa bayonida roviy va muallif sintezlashib ketgan o'rinlarda hamma ana shu tizimga amal qilinavergan. Ya'ni, bu jarayon janrning ichki struktur tarkibini tashkil etib, uning shakllanish va takomil yo'lini belgilab bergan. Shu tariqa ushbu janr ma'lum shakllanish, taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Qissa epik turning o'rta janri sifatida roman va hikoya chegarasida o'z badiiy vazifasini bajargan. Adabiyotshunoslikda uning janr xususiyatlari belgilanar ekan, mana shu chegaraning qay darajada saqlanganiga asosiy e'tibor qaratiladi. M.V. Golovko: «Bu janr (ya'ni qissa (povest), — D.X.) butunlay o'zgaruvchan, qorishiq (gibrid)dir. Povest bilan hikoya, povest bilan roman o'rtasidagi chegaralar

muttasil o'zgaruvchandir»¹, — deganida aynan shu jihatlarni nazarda tutadi.

V.G. Belinskiyning: «...povest inson taqdiri haqidagi tugallanmagan romandan qisqa bir manzara»², — degan fikrida ham roman va qissa chegaralarini belgilashga ishtiyoq seziladi. D.S. Lixachev esa: «Povest romandan ko'ra qisqaroq, personajlar ham kamroq, ularning qissa qilinayotgan taqdiri uzun emas, syujet ixcham, hatto keskinroq»³, — degan fikrlarni bayon etar ekan, qissa janri belgilarini konkretlashtirishga urinadi. Akademik Izzat Sultonning fikriga ko'ra: «...bir kishi va u bilan hayoti bog'liq bo'lgan bir necha kishining taqdiri o'rtacha hajmda tasvir etilgan, ammo hayotning keng manzarasini chizib berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ymaydigan asarlar povest janriga mansubdir»⁴.

«Adabiyotshunoslik lug'ati»da qissa janriga quyidagicha ta'rif berilgan: «O'zining janr xususiyatlari bilan qissa hikoya va roman oralig'idagi hodisadir: hikoyada qahramon hayotidan birgina voqea, romanda qahramon hayotining murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimidagi katta bir davri, qissada qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinadi Hikoyaning diqqat markazida voqea, romanning diqqat markazida qahramon vositasida idrok etilayotgan olam (jamiyatning joriy holati) tursa, qissaning markazida hamisha qahramon turadi»⁵ — deb beriladi.

Demak, qissa bir inson hayotining ma'lum davri, ma'lum vaziyatlari, ma'lum ruhiy holatlari haqida subyektiv tarzda hikoya qiluvchi, roman, novella va hikoyaga xos ayrim o'ziga monand xususiyatlaridan holi bo'lmagan mustaqil janrdir.

O'zbek adabiyotshunosligida qissa atamasi xususida jiddiy bahslar bo'lgani, adabiyotshunos olimlar U.Normatov, A.Rasulov,

¹ Головкин В.М. Поэтика русской повести. — Саратов, 1992.

² Белинский В.Г. Собрание сочинений. т.3. — Москва, 1978.

³ Лихачев Л.С. Неравнодушная проза. — Москва: Художественная литература, 1984.

⁴ Sul'ton I. Adabiyotnazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2005.

⁵ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик лугати. — Тошкент: Akadem nashr, 2010.

A.Ulug'ovlar¹ qissa va povest bir janrning sinonim darajasiga yetgan yagona nomi ekanini isbot qilishgani bizga ma'lum. Jumladan, adabiyotshunos Abdulla Ulug'ov 80-yillardayoq: «...povest bilan qissa termini mantiqan deyarli bir xil ma'noni anglatadi. Shuning uchun o'zbek tilida povest termini o'rniga qissa termini ishlatiladi. Endi mana shu holni inobatga olmay, yaratilayotgan ayrim asarlarning hajman katta-kichikligiga nisbat berib, «yangi janr paydo bo'ldi» deyish o'z-o'zidan bahsli»², — degan fikrlarni bildirgan edi.

«Adabiyotshunoslik lug'ati» kitobida: «Adabiyotshunoslikda qissa bilan povest terminlarining qo'llanishi turlicha: ular sinonim sifatida ham, boshqa-boshqa janr nomlari sifatida ham ishlatiladi. Qissa bilan povestni boshqa-boshqa janrlar deb tushunish yetarli asosga ega emas, shuning uchun ularni sinonim sifatida tushunish kengroq ommalashgan»³.

Biz ham yuqoridagi fikrlarga qo'shilib, qissa va povest atamalari bir epik janrni bildirishini ta'kidlaymiz. Ish davomida ushbu to'xtamga sobit qolgan holda janrni faqat bir nom bilan — qissa deb ataymiz.

Yana shuni ham qayd etishni xohlardikki, har bir asar muallifning iste'dod darajasi, badiiy niyati, badiiy talqin usuli, eng muhimi, badiiy uslubiga ko'ra individuallik kasb etadi. Muallif, badiiy asar va uslub uyg'unligi adabiy voqelik xarakterini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqta'i nazardan nemis mutafakkiri Fridrix Shlegelning: «Har bir badiiy asar o'zicha alohida janrdir»⁴, — degan fikrini eslash maqsadga muvofiqdir.

O'zbek qissachiligiga shu nuqtai nazardan qaraganimizda uning qator poetik omillari va jahon qissachiligida uchramaydigan yangi uslubiy xususiyatlari borligiga amin bo'lamiz. O'zbek qissachiligining bugungi darajasi, o'zbek qissasi uslubiga xos yetakchi jihatlar, uning

¹ *Норматов У.* Насримиз уфқлари. — Тошкент: 1974.; *Улуқов А.* Қиссачилигимиз қирралари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

² *Улуқов А.* Ко'rsatilgan asar.

³ *Қуронов Д.* ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Akademnashr, 2010.

⁴ Жанровое разнообразие современной прозы Запада. — Киев, 1989.

shakllanishi, taraqqiyot tamoyillarini belgilash uchun qissachiligimiz tarixiga qisqa nazar tashlash lozim, deb o'ylaymiz. Busiz hozirgi o'zbek qissalaridagi uslub muammosi borasida yetarli xulosalarga ega bo'lish mumkin emas.

Adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov Shodiqul Hamroning «Qora kun» qissasi haqidagi bir tadqiqotida o'zbek qissachiligi tarixida mazkur janrning «uch shakli» borligini qayd etib, bu haqda shunday fikr bildiradi: «Dastlabki shakli xalq qissachiligi bo'lib, ularga ma'lum u mashhur voqealarni bayon etish, ya'ni usuli bayon yetakchilik qilgan. Sho'ro davriga kelib qissachilik o'z funksiyasini tubdan o'zgartirdi. Ma'lum sabablarga ko'ra ularda targ'ib va tashviq usuli bosh planga chiqdi. Qissachiligimizning uchinchi ko'rinishi XX asrning 80–90-yillarida shakllandiki, bularni shartli ravishda yangi qissalar deb atash mumkin»¹. Olimning fikrlarini e'tirof etgan holda aytilish mumkinki, o'zbek qissalari uslubining bu tarzda shakllanishida to'rt asosiy omil muhim ahamiyat kasb etgan. Bular: a) folklor tarkibida shakllangan qissalar; b) yozma mumtoz qissachilik; v) sho'ro qissachiligi (ruspovesti); g) jahon realistik va modern qissalaridir.

O'zbek folklori tarkibida shakllangan qissalar deyilganda biz, asosan, adabiyotshunoslikda «xalq kitoblari» nomi bilan yuritiladigan, og'izdan-og'izga ko'chib, keyinchalik ularni saqlab qolish maqsadida kitobat qilingan qissalarni tushunamiz. Bunday kitoblarda bir qahramon hayotiga doir voqealarni tartibi bilan bayon etish, ya'ni «usuli bayon» yetakchilik qilgan.

Yozma mumtoz qissachilik asosan islom dini va shu bilan bog'liq shaxslar hayotiga doir bir yoki bir nechta voqeani talqin etishga qaratilgan. Bunday qissalarda ko'proq payg'ambarlar, sahobalar, avliyolar tarixiga doir voqealar aks ettirilgan. Burhoniddin Rabg'uziyning «Qisas ul-anbiyo», Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo», «Lison ut-tayr» dostoni tarkibida keladigan «Shayx San'on qissasi», mashhur «Yusuf va Zulayho» asarlari mana shu xarakterdagi qissalarga misol bo'ladi. Bunday qissalar bevosita yozma adabiy uslub yo'lida yozilib, aniq badiiy konsepsiyaga tayangan. Ularning asosida «Qur'oni karim»

¹ *Журақулов У. Худудсиз жилва. — Тошкент: Фан, 2006. 161-6.*

va Muhammad alayhissalom hadislarini turgani bois muallifning badiiy niyati shunday mo'tabar manbalar mazmunini kengroq sharhlash, ommabop qilib bayon etish bo'lgan. Qissalarning kompozitsion qurilishi, syujet tizimida ham mumtoz qissachilik an'alarini to'la saqlashga harakat qilingan. Shu sababdan bu kabi qissalarda Qur'on oyatlari, diniy, fiqhiy atamalar, Qur'onda kelgan nomlar, arabcha, forsha jumla va iboralar ko'p qo'llanilgan. Bizga ma'lumki, bunday qissachilik an'analari, mumtoz qissa qilish uslubi XX asr boshlariga qadar davom etgan.

Sho'ro davri o'zbek qissachiligi boshqa millatlar adabiy ta'sirini istisno etganda ko'proq rus qissachiligi, rus povesti negizida shakllandi desak, xato bo'lmaydi. 40—50-yillardan boshlab, «qissa» terminining adabiy iste'moldan siqib chiqarilishi, bu janr asosan «povest» termini bilan atay boshlanishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ularda rus qissalariga xos syujet, obrazlar tizimi, kompozitsion shakl, bayon uslubi ustuvorligi ko'zga yaqqol tashlanadi. L. Tolstoy, F. Dostoyevskiy qissalari, M. Gorkiy, M. Sholoxov va boshqa ko'plab rus sho'ro yozuvchilari asarlari o'zbek sho'ro qissachiligining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Faqat XX asrning 60-yillaridan boshlab, o'zbek qissachiligi jahon realistik qissasi tomon chin ma'noda yuz burdi. Endilikda rus yozuvchilari bilan bir qatorda Stendal, Balzak, Flober, Xemingueylar an'alariga murojaat kuchaydi. O'zbek qissanavislari inson shaxsi va hayot muammosini real voqelik negizida talqin eta boshladilar. Sof realistik adabiyot bilan yonma-yon U. Folkner, J. Joys, G. Markes, A. Kamyu, F. Kafka, M. Prustlarning modern uslubiga murojaat ham kuchaydi (bu jarayon ko'proq 80-yillarda yaqqolroq ko'rindi, bu o'rinda ham biz nasr uslubini nazarda tutganmiz, — D.X.). Shu tariqa o'zbek folklor qissachiligi, Sharq mumtoz qissachiligi, sho'ro qissachiligi va jahon realistik hamda modernistik qissachiligi an'alarini o'zida mujassam etgan bugungi o'zbek qissasi shakllandi.

O'zbek qissalari va uning uslubi yo'ziga xosligi mana shunday jiddiy omillar bilan bevosita bog'liq. Garchi to'ng'ich o'zbek qissasi namunasi sifatida A.Qodiriyning «Obid ketmon»i, professional qissa janri deb A.Qahhorning «Sinchalak» asari ko'rsatilsa ham, ular o'zining mavzusi,

badiiy maqsadi, obrazlari va bayon uslubiga ko'ra zamonaviy sho'ro qissalari talablariga monandrog keladi. Birida kolxozlashtirishga nisbatan ironik munosabat, ikkinchisida esa xayrixohlik va uni yoqlash ruhi aks etgan bu asarlar ma'lum ma'noda an'anaviy qissachilik mezonlarini chetlab o'tishi jihatidan o'sha davr nuqtai nazaridan zamonaviy hisoblangan.

An'anaga bog'langanlik nuqtai nazaridan sho'ro davrida yozilib, o'zbek an'anaviy xalq qissanavisligi va Sharq mumtoz qissachiligi uslubini o'zida sintez qilgan ilk asar sifatida G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasini ko'rsatish mumkin. Agar «Obid ketmon» va «Sinchalak» asarlarida rus sho'ro qissachiligi an'analari mos holda roviy vazifasini muallif bajarsa, «Shum bola» muallifi bu masalada xalq va mumtoz qissachiligi yo'lini tutadi. Voqealar boshdan-oxir asar qahramoni tilidan goh xalq yo'lida, goh mumtoz yo'lda qissa qilinadi. Masalan, pochchasining qushlarini o'ldirib qo'yib, qahramonning darbadar hayoti boshlangan vaziyatlarni tasvir etar ekan, xalq qissanavisligiga doir quyidagi bayon uslubiga duch kelamiz: «Hammasini (achchabodlik lo'lilardan zotdor qumriga ayir boshlagan yuklarni, — D.X.) yelkamga qo'yib bu shahardan ham chiqib ketdim. Oldimda katta cho'li azim paydo bo'lgan edi, «qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan» bu cho'lda yelkamda boyagi yuklar bilan ketib borar edim. Uzoqdan bir kishining qorasi ko'rina boshladi...»¹. Real qaraganda shum bola tark etgan Achchabod hech qanday «shahar» emas. Bor-yo'g'i eski Toshkentning kichkina bir mahallasi xolos. Ammo G'.G'ulom o'z qahramonining bolaga xos tasavvur tarzini, u duch kelgan «fojia»ning ko'lamini oshirish uchun shu usuldan foydalanadi. Voqealar ko'lamini bo'rttirishda mubolag'a usuliga murojaat etadi. «Cho'li azim» birikmasi esa bu o'rinda xalq kitoblari ta'sirida shakllangan o'sha davr o'quvchilari anglashi uchun ayni muddao edi. Shuningdek, iqtibosda ko'zga tashlanadigan «Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadi» iborasi o'zbek xalq ertaklari va qissalarida faol qo'llab kelingan. Yuqoridagi tasvirning keltirilishi bizga Sharq mumtoz qissalari uslubini eslatadi.

¹ *Фафур Фулом. Танланган асарлар. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003. 168-б.*

Yoki asarda Ko'kterak bozori shunday tasvirlanadi: «Hay-hay, bozor bo'lganda ham qanday bozor, deng? Bu tomoni Eron-u Turon, Makka-yu Madina, Maymana-yu Maysara, Xito-yu Chin, Istambul-u Mozandaron — na quyi na past, na o'ngu na chap. Bunday katta bozorni odam bolasi ko'rmagan bo'lsa kerak. Bozordagi rastalarni ayting, mollarning shig'al to'lib ketganligini ayting. Savdogarlarning makkor bashalarini, rango-rang kiyim-boshlarini ayting. Bay-bay, bunday bozor «Qisas ul-anbiyo»da ham, «Huriliqo» degan kitobda ham yozilmagan, hech qayerda — tarixda yo'q»¹. Tasvir bola tilidan berilayotgan bo'lsa-da, bu o'rinda xalq tili va urf-odatlarini, qadim mumtoz adabiy merosni, folklor adabiyotini chuqur bilgan muallif qiyofasi uslub bois yaqqol namoyon bo'ladi. Uslubdagi biroq kinoya, mubolag'a, xalq hikoyachilik san'atiga xos ravonlik va soddalik badiiy tasvir jozibasini oshirgan.

Rus olimi akademik V.V. Vinogradov «...roviy obrazida ijodkorning maqsad va niyati mujassam topadi»², — deb ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, G'.G'ulom «Shum bola» qissasi orqali o'zining katta ijodiy niyatiga erisha olgan.

Sho'ro zamonida yozilgan «Obid ketmon» va «Sinchalak» yagona mavzu — kolxoz hayoti masalasiga qaratilgan. Natijada yangi zamonga doir tushuncha va qarashlar, o'sha davr kishilari kayfiyati ushbu asarlar uslubida ham namoyon bo'lgan. «Obid ketmon»ning birinchi jumlasidanoq asar yozilgan davr kishilari uchun bir qadar yangi bo'lgan yoki endigina iste'molga kirib kelayotgan so'zlar ko'zga tashlanadi: «Hozir «Paxtachi» kolxozining g'o'zalari orasidan boramiz...»³ Qissadagi dastlabki xabar «paxtachi» va «g'o'za» so'zlari orqali kolxozlashtirish siyosatiga o'z munosabatini bildirgan. Yozuvchi qay tomon qadam qo'yma g'o'za, qayoqqa yuz burma kolxozlashtirish, demoqchi bo'lgan go'yo. Eng muhimi qissa qahramoni Obid ketmon duch kelgan favqulodda (o'ziga va o'zbek dehqonlariga noqulay) vaziyatning ibtidosi ham shu yerda. Ikkinchidan, bunga kim aybdor

¹ O'sha asar.

² *Виноградов В.В. О теории художественной речи.* — Москва: Высшая школа, 1971.

³ *Қодирий А. Обид кетмон //Фирвонлик Маллавоӣ. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.*

degan so'roq va uning javobi ham zamon taqozasiga ko'ra matn ostiga yashirilgan. A. Qodiriy o'zining o'tkir zehni va keskir tili bilan bu narsani yuksak kinoyaviy-satira yo'li orqali ifoda etgan. Obid ketmon hayoti bilan bog'lab hikoya qilinadigan barcha voqealar (ayniqsa, «Men bosmachi emasman», «Bir tulki va bir kulgi», «Qarg'a qizil ko'radi» bo'limlarida bunday ma'no yaqqol ko'rinadi)da mana shu pafos yetakchilik qiladi.

A. Qodiriyning «Obid ketmon» qissasi tanqidiy pafos realistik tasvir uyg'unligida millat boshiga kelgan fojiaiy vaziyatni va bunga nisbatan o'sha davrdagi real va eng faol munosabatni berishga qaratilgan. Bu o'rinda yozuvchi shaxsi bir butun asar uslubi qiyofasida namoyon bo'lgan.

A. Qahhorning «Sinchalak» qissasi shunday jumla bilan boshlanadi: «Kechki payt. Rayon partiya komitetining sekretari o'rtoq Tohirjon Nosirov chang bosgan «Villis»dan tushib, yoshi oltmishdan oshib qolganiga qaramay, raykom binosining zinasidan chopqillab chiqib ketayotgan edi, birdan to'xtadi; zining bir chekkasiga borib, koverkotmakin toshining etagini, brezent etigini qoqdi; poxol shlyapasini boshidan olib, ro'molchasi bilan peshona va bo'ynini naridan-beri artidi-da, endi salmoqli qadam tashlab chiqib ketdi...»¹. A. Qodiriy qissasi singari bu asarning ham birinchi jumlasini tahlil etadigan bo'lsak, o'zbek qissasi uslubi tadriji va tabiatiga doir yangi to'xtamlarga ega bo'lishimiz mumkin. Jumladagi birinchi gap xabar. Qissadagi zamon tushunchasiga dalolat qiladi. Undan biron ramziy ma'no qidirish o'rinsiz. «Kechki payt» xabari orqali yozuvchi rayon partiya komitetining sekretari kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay ishlayotgan fidoyi bir kommunist ekaniga o'quvchi e'tiborini tortmoqchi xolos. Uning binoga kirish oldidan o'ziga tartib berishi: kiyimlarining changini qoqishi, terlarini artishi ham shu maqsad yo'lida xizmat qiladi. Benuqson kommunist obrazidagi fazilatlarini ta'kidlaydi. Jumladagi «partiya», «o'rtoq», «komitet», «sekretar», «raykom», «kover kotmakin tosh» hatto «villis» so'zlari bir butun holatda asarda tasvirlanayotgan davr ruhini, muallifning badiiy g'oyasini ifodalab keladi. Bundan

¹ Қаҳҳор А. Синчалак // Асарлар. Беш жыллик. Учинчи жилд. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

37385

ko‘zlangan asosiy maqsad qissa davomiga borib umumiylikdan konkretlikka tomon siljiy boshlaydi. Ya’ni shu rayonda «Bo‘ston» degan kolxoz bor. Uning raisi Qalandarov, ishni yaxshi olib borishga qaramasdan, o‘ta o‘z bilarmon, taltayib ketgan diktator raisga aylangan. Uning kolxoz va jamiyat hayoti, partiya obro‘sig a putur yetkazish ehtimoli bor. Bu borada muvozanatni saqlash vazifasi esa partiya tashkilotining vijdon ishi. Qissa qahramoni Saida partiya tomonidan shunday mas’uliyatli ishni bajarishga yo‘llanadi. Uzoq daromad gaplardan so‘ng birinchi sekretar Saidaga shunday deydi:

— Men sizga aytmoqchi bo‘lgan gapimni hali aytganim yo‘q. Bu gaplar hammasi daromad edi. Gap shuki, biz, byuro a‘zolari kengashib, «Bo‘ston» partiya tashkilotining sekretarligiga sizni tavsiya qilishga qaror berdik...¹

Mana shu gap bilan asar qahramoni Saidaning hayotida yangi kechmishlar davri boshlanadi. Qalandarovdek erkato y raisni tarbiyalash, to‘g‘rirog‘i tavbasiga tayantirish yo‘lidagi psixologik konflikt ifodasi asar uslubini tashkil etadi. Asarda xalq maqollari, frazeologizmlar, qochirim va kinoyalar anchagina va ularning barchasi yuksak badiiy mahorat bilan o‘z o‘rnida ishlatilgan. Misol uchun o‘z maslakdoshlarining Qalandarovga «sekretaring seni minib o‘libdi» degan qochirimlariga javob tarzida aytilgan mana bu jumlada yozuvchining badiiy niyati va asar badiiy g‘oyasi namoyon bo‘lgan: «Bu gapni senga qaysi eshak aytdi! Meni minadigan odam bolasi hali tug‘ilgan emas. Sekretarim ayol bo‘lsa ham, shu gapni senga aytgan odamning yigirmatasiga alishmayman. Aytib qo‘y!...». Qalandarovning sinchalakdek bir qiz, nozikkina partiya xodimasining irodasi oldida yengilishi bilan asar voqealari xotima topadi. Asarning (xotimadan oldingi) so‘nggi jumlas i shunday yakunlanadi: «Qalandarov peshonasini quchog‘idagi yostiqqa qo‘yib jim qoldi, aftidan, endi boshini ko‘tarmoqchi emas edi».

Demak, A.Qahhor yuksak mahorat sohibi sifatida butun boshli asarni mana shu uch jumla asosiga qurgan. Qahhorona uslub,

¹ *Қаҳҳор А.* Асарлар. Беш жилдлик. Учинчи жилд. Ўтмишдан эртаклар. Қиссалар. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. 49-б.

garchi g'oyaviy jihatdan sho'rocha qarashlarni ifodalagan bo'lsa-da, qissa mohiyati va o'sha davr hayotining real tasvirini chizib berish yo'lida katta imkoniyatlarini namoyon qila olgan.

A.Qahhordan nisbatan keyinroq ijod qilgan Odil Yoqubov, Asqad Muxtor, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov qissalarida uslubning individuallashuvi, yozuvchi badiiy konsepsiyasining konkretlashuvi va buning bevosita uslubda namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qissaning boshqa epik janrlardan farqini tushuntirib bering.
2. Janr haqidagi nazariy ta'riflarni tushuntiring.
3. Janrning taraqqiyot bosqichlari haqida gapirib bering.
4. «Povest» va «qissa» atamaları haqida sizning fikringiz qanday?
5. Qissa uslubidagi an'anaviylik va yangilikka misol keltiring.

Testlar:

1. «...qissaning markazida hamisha qahramon turadi», -- degan fikrlar manbasini aniqlang.

- A. * Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati.
- B. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.
- C. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.
- D. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi.

2. «...povest bilan qissa termini mantiqan deyarli bir xil ma'noni anglatadi» -- degan fikr muallifi kim?

- A. * Ulug'ov A.
- B. Quronov D.
- S. Umurov H.
- D. Boboyev T.

3. Sharq mumtoz qissachiligi uslubini o'zida sintez qilganlik asarni toping.

- A. * «Shum bola».
- B. «Obid ketmon».
- S. «Sinchalak».
- D. «Bolalik».

4. Tohirjon Nosirov obrazi tasvirlangan qissani toping.

- A. * «Sinchalak».
- B. «Shum bola».
- S. «Obid ketmon».
- D. «Yodgor».

5. Qoravoy, Omon obrazlari qaysi asarda uchraydi?

- A. * «Shumbola».
- B. «Yodgor».
- S. «Shirin qovunlar mamlakatida».
- D. «Sariq devni minib».

6. Abdulla Qahhor qissalari yozilgan qatorni toping.

- A. * «O'tmishdan ertaklar», «Sinchalak».
- B. «Yodgor», «Muhabbat».
- S. «Obid ketmon», «Netay».
- D. «O'tmishdan ertaklar», «Shumbola».

Adabiyotlar:

1. *Аброров А.* Ўзбек повести. — Тошкент: Фан, 1973.
2. *Белинский В.Г.* Собрание сочинений. т.3. — Москва: 1978.
3. *Виноградов В.В.* О теории художественной речи. — Москва: Высшая школа, 1971.
4. *Головкин В.М.* Поэтика русской повести. — Саратов, 1992.
5. Жанровое разнообразие современной прозы Запада. — Киев, 1989.
6. *Жўрақулов У.* Худудсиз жилва. — Тошкент: Фан, 2006.
7. *Лихачев Л.С.* Неравнодушная проза. — Москва: Художественная литература, 1984.
8. *Мирвалиев С.* Ўзбек романи. — Тошкент: Фан, 1969.
9. *Норматов У.* Насримиз уфқлари. — Тошкент: 1974.
10. *Sulton I.* Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2005.
11. *Улуқов А.* Қиссачилигимиз қирралари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1991.
12. *Қаҳқор А.* Синчалак. Асарлар. Беш жилдлик. Учинчи жилд. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1988.
13. *Қодирий А.* Обид кетмон // Қирвонлик Маллавоӣ. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987.
14. *Қуроноӣ Д.* ва бошқ. Адабиётшунослик лугати. — Тошкент: Akadem nashr, 2010.

QISSACHILIKDAGI USLUBIY YANGILANISHLAR

◆ Reja:

1. XX asrning 60-yillari o'zbek qissalaridagi uslubiy o'zgarishlar.
2. Qissalarda ijtimoiy masalalarning yoritilishi.
3. Qissalarda inson qalbi, intim munosabatlarning tasviri.
4. O'zbek qissasi uslubining takomilida A. Muxtor va O. Yoqubov asarlarining o'rni.

Tayanch so'z va iboralar: realizm, milliy uslub, zamonaviylashgan uslub, sentimental ruh, intim tasvir, pafos.

XX asrning 60-yillari o'zbek qissalari zamonning nisbatan «iliqlashuvi» bois partiyaviy ideallardan inson shaxsi, uning ruhiy dunyosi tasviri tomon yuz burdi. Bu jihat shaxs orzu va intilishlari, ehtiyoji, taqdiri va fojeaviy holatining badiiy tasvirida namoyon bo'ldi. Bir shaxs hayotiga doir murakkab voqelikni qahramon qalb prizmasidan o'tkazib tasvirlash yoki qissaning ilk jumlasini shu qahramon holati, ismi bilan boshlash, obrazlar ismiga katta badiiy ma'no yuklash, qissada qatnashuvchi barcha personajlar nutqini dunyoqarashi, maslagi, millati va jinsiga ko'ra individuallashtirish bunday qissalar uslubining yetakchi xususiyati sifatida ko'rinadi. Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov qissalarida ayni jihatlar yorqin aks etadi.

Asqad Muxtorning 80-yillarda chop etilgan «Jar yoqasida chaqmoq»¹ qissasida asar qahramoni Mamatning murakkab qismati romanga xos keng ko'lamda tasvirlangan. Unda «No'g'ay muallim», «Olim bilan Halim», «Yana ot dupuri», «La'nati quti», «Tush», «Salim chorva» kabi qator mustaqil sarlavhalar (jami 15 ta) ko'plab qahramonlar obrazi, ko'plab yangi voqealarni badiiy talqin etsada, ularning markazida bosh obraz Mamat taqdiri bilan bog'liq kechmishlar turadi. Voqealar muallif tomonidan qissa qilinadi. Har

¹ Muxtor A. Jar ёқасида чақмоқ // Илдизлар. Қиссалар. — Тошкент: Ёш гвардия, 1984.

bir qism tabiat, holat, ijtimoiy hayot tasviri bilan boshlanadi. Shu tarzda yozuvchi qissa qahramoni va voqelik ruhiyatiga chuqurroq kirib borishga erishadi. Mutaxassislar qissa janri haqida asar voqeligi va qahramoni bir jumla yoki yagona mazmun atrofida uyushtiriladi, degan fikrni bildiradilar. A. Muxtorning ushbu qissasi markazida «Odamning boshi toshdan» deyilgan xalq hikmati turadi. Mamat yosh bo'lishiga qaramay, ko'plab sarguzastlarni boshdan kechiradi. Turli holat, vaziyatlarga tushadi. Ammo irodasi bukilmaydi, insoniyligini, odamlarga, ezgulikka ishonchini yo'qotmaydi. Qissada roviy va qahramon uslubi bir-birini to'ldirib keladi. Ammo har bir personaj roviy nutqidan o'zgacha, individual tarzda so'zlaydi. Bu esa asar voqeligining mozaika tarzida tasvirlanishiga imkon yaratadi. Masalan, Mamatning yelkasidagi omonat (katta miqdordagi oltin buyumlar solingan xurjun)dan xabar topgan rus zobiti unga shunday deydi:

— Bilasan saniki! Xurjun topasan! Topmasang — ana, bitta o'q, babax — i allax uhasan...¹

Yoki, butun boyligi, shon-shavkati, bola-chaqasidan ayrilgan Salim chorva dunyodan voz kechib, haj safaridan najot istagan holatida Mamatga qarata:

— Bu yo'ldan onujon qayg'usi bo'lmaydi, bo'tam. Jon omonat, o'lim haq. Haj safarida o'lim Olloning inoyatidir², — deydi.

Yoki Mamat och-nahor yurganida bir boshpana so'ragan kampir unga qarata:

— Qaysi Xudo yarlaqaganning jigarisan, bolam? Kimni qora tortib bu yerlarda yuribsan?³ — degan so'zlarni aytadi. Bu yerda kechayotgan nutqning har uchala shakli ham bir kishiga — qissa qahramoni Mamatga qaratilgan. Ularning birinchisida qahramonga nisbatan tajovuz, ikkinchisida neytral munosabat va nasihat, uchinchisida mehr-shafqat pafosi barq urib turadi. Personajlarning maqsad-muddaosi, shaxsiyati, hatto jinsi bu o'rinda qat'iy e'tiborga olingan. Natijada uslub rang-barangligi va o'ziga xosligiga erishilgan.

¹ *Myxmp A. O'sha asar.*

² *Myxmp A. O'sha asar.*

³ *Myxmp A. O'sha asar.*

O'zbek qissasi uslubining takomilida yozuvchi Odil Yoqubov asarlarining ham o'ziga xos o'rni bor. Uning ijodiy uslubida A. Qodiriy, Oybek, G'. G'ulom, A. Qahhorlar an'analari yangilangani kuzatiladi. 60-yillardagi oshkoralik siyosatidan so'ng o'zbek adabiyotida ham jahon qissachiligi an'analariga yuz burish boshlandi, Chingiz Aytmatov avlodi kirib keldi. Shu avlodning yorqin vakillaridan biri O.Yoqubov edi. Garchi yozuvchi O. Yoqubov umrining so'nggi yillariga qadar turli mavzudagi qissalar ijod qilib, bu janrga sodiq qolgan bo'lsa-da, uning 60-yillarda yozgan qissalari o'z davri uchun original, yangi adabiy talqin nafasini singdirgan, harorat va poeziyaga boy edi. Yozuvchining shunday qissalaridan biri «Muqaddas» sanaladi. Qissada Gyotening «Yosh Verterning iztiroblari», Mopassanning «Azizim», E.Xemingueyning «Alvido qurol», A. Qodiriyning «O'tkan kunlar», Oybekning «Qutlug' qon», A. Qahhorning «Sarob», Ch. Aytmatovning «Jamila» asarlaridagi poetik ruh, lirik kayfiyat, hissiy tasvir uyg'unligi ko'zga tashlanadi. Ammo yozuvchi shunday ulkan badiiyat dengizi ichra o'z qayiqchasini topa olganki, bu jihat aynan uning uslubida namoyon bo'ladi.

«Muqaddas» barcha adabiyotshunoslar yakdil qayd etganlaridek, muhabbat qissasi. Bundagi pokiza sevgi, osmoniy orzular, samimiy ehtiros, ko'z yoshi va umidsizlik bizga Verter muhabbatini eslatadi. Hali O.Yoqubovga qadar bironta o'zbek qissasi bu tarzda hissiy, bu tarzda kutilmagan jummlar bilan boshlanmagan edi: «Bu voqealarga bir qiz sabab bo'ldi. Qizning ismi Muqaddas edi...»¹ Qissa qahramon tilidan rivoyat qilinadi. Ammo diqqat bilan kuzatilsa, roviyda muallif ovozi bilinib turadi. Dastlabki jumla axborot tarzida yangraydi. Shu bilan birga axborotning o'zida qissaning butun sir-asrori yashiringanga o'xshaydi. Bu bilanadi o'quvchini qahramon hayotida ro'y berib o'tgan sirli-sehrli bir voqea tafsilotlariga tayyorlaydi. Ko'plab asarlarda ko'ramizki, voqealar xronologik tarzda hikoya qilinadi. Bu uslub nisbatan badiiy ilg'ami pastroq o'quvchilarga moyillik uyg'otadi. «Muqaddas»da esa keltirilgan ikki jumlada voqealar oqimi shiddat bilan o'tmishga qarab oqadi. 60-yillar qissachiligigacha yangilik bo'lib kelgan

¹ Ёқуб О. Қайдасан Мориго // Қиссалар, драмалар, ҳикоялар, этюдлар, мақолалар. — Тошкент: Шарқ, 2002. 4-б.

bunday retro uslub (asosiy voqea bayoniga kirishishdan oldin bir dam orqaga nigoh tashlab olish, — D.X.) keyingi asl voqelikni tasvirlash uchun juda qo‘l keladi. Har ikki jumlada kelgan o‘tgan zamon fe‘l shakli bu yerda gap ohangini susaytirmasdan, jonsizlantirmasdan, tirik holatida yaqin o‘tmishga olib boradi. Mana shu ikki jumlaning o‘zida ham lirika, ham fojia bor. Unda orzu va pushaymonlik mushtarak aks etgan. Qolaversa, qizning ismi ham ko‘p narsani hikoya qiladi. Qahramon tomonidan muqaddas bir narsaning yo‘qotilgani anglashiladi. Bu o‘quvchi yuragida fojiviyy tuyg‘ularni junbushga keltiradi. Insonlikning sharifnomiga (yigitning ismi Sharif) erishish bo‘lag‘asida turgan qahramon muqaddas narsasi (Muqaddasi)ni yo‘qotgandan so‘ng o‘z sharifligini ham boy beradi. Lekin qissaning izohida keltirilganidek Sharif aslo xudbin emas. Uni shunchaki xudbinlikka yo‘l qo‘ygan jo‘n bir qahramon deb bo‘lmaydi. U bor-yo‘g‘i Verter singari muhabbatning tutquni xolos. Uning uchun Muqaddasni ko‘rgan onidan boshlab institut ham, ish ham, oila ham, do‘st-yorlar ham, boringki, borliq hayotning nomi birgina so‘zga — muhabbatga aylangan xolos. Oshiq'larga azaldan majnun sifatini beradilar. Junun ahli uchun esa bu dunyo, joriy turmush qonun-qoidalari nolga teng. Ular hamma narsani muhabbatning qarichi bilan o‘lchaydilar. Abdulla Oripov aytmoqchi «sog‘lar» uchun savob-ugunoh deya ajratiladigan o‘lchamlarga ters kelganda ham muhabbat manfaati bularning barchasidan ustun kelaveradi. Shu bois Sharif ko‘plab adabiyotshunoslar qoralagan o‘sha mash‘um qarorga rozi bo‘ladi. Soxta talabaga aylanadi. Bundan Sharifning g‘arazi birgina — Muqaddas bilan bir havodan nafas olish edi. Muhabbat istagi va turmush qonuniyatlari o‘rtasida yechimsiz vaziyatda qolgan, alal oqibat qing‘ir yo‘lni tanlagan qahramon qismatida fojia o‘z muhrini bosadi. Mana shu holat qahramonning fojiviyligi, demakki, ulug‘vorligini ham ko‘rsatadi. Muqaddas real voqelikdagi haqiqatdan (ya‘ni Sharifning qing‘ir yo‘l bilan o‘z o‘rniga institutga kirganidan) voqif bo‘ladi. Ammo undagi rasmiy hayot iplariga mustahkam bog‘langanlik Sharif ruhiyatidagi asl voqelik (majnun ona muhabbat)dan g‘ofillikka sabab bo‘ladi. U Sharifning pokiza niyatini anglamaydi. Oqibatda Sharifning fojiviyy holati yanada bo‘rtibroq ko‘rinadi. Qissaning ayni holat tasvirlangan ikki sahifasi (74—75-betlar)da Sharif tilidan

Muqaddas degan kalom o'n marta o'n xil ohangda takrorlanadi. Buning so'nggisi umidsizlik ohangi bilan yo'g'rilgan edi:

— Muqaddas! — dedim uni to'xtatishga harakat qilib. — Muqaddas!

So'nggi «Muqaddas» kalomidan keyin uslub talabiga ko'ra «undov» (!) belgisi qo'yilishi kerak edi. Biroq yozuvchi bu joyga nuqta qo'yadi. Bu bilan qahramoning emotsional murojaatidan falsafiy xulosani afzal ko'radi. Nuqta, ya'ni Sharif bir insonning pokiza muhabbati intiho topdi, unga shafqatsiz hayot qat'iy sur'atda nuqta qo'ydi. Bu majnunlikning azal-u abad qonuniyatlariga mos. Zotan majnunlar aslo o'z laylilariga erisha olishmagan. Mana shu xulosaning o'zi asardagi sentemental ruhni oshiradi. O'quvchi xayolini otabeklar, saidiylar, yo'lchivoylar fojiasi tomon olib qochadi.

Ko'rinadiki, qisqa uslubiy tahlilidayoq O. Yoqubov qissasi uslubida o'z salafлари qissalari uslubidan o'zining pafosi, intimligi, qalb fojiasini berishi bilan farq qilishi ma'lum bo'ladi. Keyingi davr qissachiligini izchil davom ettirgan Pirimqul Qodirov, O'lmas Umarbekov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov uslubida mana shunday inson hissiy olami, qalb kechinmalari, jamiyat va shaxs fojiasini tasvirlash yo'li o'zbek qissachiligi an'analarini to 80-yillarga qadar tamomila boshqa o'zanga burib yubordi. 60-yillargacha bo'lgan badiiy asarlarda, asosan, insonning ijtimoiy munosabatlardagi o'rni yoritilgan bo'lsa, keyingi davrlarda inson ichki olami, hissiy kechinmalari taftish qilingan asarlar yozila boshlandi.

Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, Xayriddin Sulton, Erkin A'zam to'rtligi uslub jihatidan o'ziga xos, ammo umumiy badiiyat qonuniyatlari jihatidan bir yo'l, bir adabiy talqinni namoyon etadi. T. Murodning «Oydinda yurgan odamlar», «Ot kishnagan oqshom», «Yulduzlar mangu yonadi», M.M. Do'stning «Mustafo», «Iste'fo», «Gala tepaga qaytish», X. Sultonning «Ko'ngil ozodadur», «Saodat sohili», «Yozning yolg'iz yodgori», E. A'zamning «Javob», «Ot oyining tug'ilgan yili» qissalarida qissa va roman qamrovi, lirika va epik talqin qorishib ketgani, qahramon

¹ Ёқубов О. О'sha asar.

hamda voqelik, syujet va kompozitsiya katta o'zgarishga uchragani ma'lum bo'ladi. Hech ikkilanishsiz aytish mumkinki, ushbu yozuvchilar an'anaviy o'zbek qissachiligi uslubiga jahon realistik va modernistik talqin usullarini muvaffaqiyat bilan singdirib yuborganlar. Lekin bu xususiyat ular tomonidan yozilgan qissalarda milliy realistik tasvir yetakchiligiga mone bo'la olmagan. Ya'ni ularning asarlarini umumiy qiyofasiga qarab eksperimental ham, modernistik qissa ham deb bo'lmaydi. Ularning uslublarini yangilangan milliy uslub, salaflari uslubiga nisbatan o'ta zamonaviylashgan uslub shakli deyish maqsadga muvofiqdir.

Savol va topshiriqlar:

1. *XX asrning 60-yillari o'zbek qissalari uslubida qanday yangilanishlar ro'y berdi?*
2. *Asqad Muxtor qissalaridagi uslubiy o'zgarishlar haqida so'zlang.*
3. *«Muqaddas» qissasi o'z davridagi qissalarga nisbatan nimasi bilan yangilik bo'la oldi?*
4. *Odil Yoqubovning yana qanday qissalarini o'qigansiz?*
5. *Bu ikki ijodkorning o'zidan oldingi yozuvchilardan farqli tomonlari haqida so'zlang.*

Testlar:

1. *«Jar yoqasida chaqmoq» qissasi muallifini toping.*
 - A. *Asqad Muxtor.
 - B. O'tkir Hoshimov.
 - C. Abdulla Qahhor.
 - D. Oybek.
2. *Muqaddas, Sharif obrazlari ishtirok etuvchi asarni belgilang.*
 - A. *«Muqaddas».
 - B. «Bahor qaytmaydi».
 - C. «Javob».
 - D. «Saodat sohili».
3. *«Qaysi Xudo yarlaqaganning jigarijan, bolam? Kimni qora tortib bu yerlarda yuribsan?» satrlari qaysi asardan olingan*
 - A. *«Jar yoqasida chaqmoq».
 - B. «Atoyining tug'ilgan yili».
 - C. «Qaydasan Mariko».
 - D. «Cho'l havosi».

4. Asqad Muxtor qissalari berilgan qatorni toping.

- A. *«Buxoroning jin ko'chalari», «Daryolar tutashgan joyda».
- B. «Ko'ngil ozodadur», «Saodat sohili».
- C. «Javob», «Ot oyining tug'ilgan yili».
- D. «Mustafo», «Iste'fo».

5. Qaysi qatorda Odil Yoqubov qissasi ko'rsatilgan?

- A. *«Qanot juft bo'ladi».
- B. «Diyonat».
- C. «Ulug'bek xazinası».
- D. «Oq qushlar — oppoq qushlar».

Adabiyotlar:

- 1. Ёқуб О. Қайдасан Морико. Қиссалар, драмалар, ҳикоялар, этюдлар, мақолалар. — Тошкент: Шарқ, 2002.
- 2. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. — Тошкент: Фан, 2006.
- 3. Мухтор А. Илдизлар. — Тошкент: Ёш гвардия, 1984.
- 4. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. — Тошкент: Маънавият, 2000.
- 5. Норматов У. Насримиз уфқлари. — Тошкент: 1974.
- 6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2005.
- 7. Улуқов А. Қиссачилигимиз қирралари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

QISSA JANRI RIVOJIDA JAHON NASRI AN'ANALARI

♦ Reja:

1. *Qissalarda tabiat va inson uyg'unligi masalalarining yoritilishi.*
2. *Hozirgi qissachilikda jahon realistik va modernistik an'analarning namoyon bo'lishi.*
3. *Inson botiniy jarayonlari, ruhiy kechinmalari tasviri.*
4. *Ulug'bek Hamdam va Shodiqul Hamro qissalarida yangilangan uslub ko'rinishlari.*

Tayanch so'z va iboralar: *naturalizm, sintez, modern, ramz, majoz, makon, zamon, voqea, syujet, arxitektonika.*

Keyingi davr qissachiligiga xos uslub originalligi realistik, naturalistik va modern uslub sintezida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qissa janri tabiatidagi o'zgarishlar va o'ziga xosliklarni N.Norqobilov, U.Hamdam, Sh.Hamrolarning qissalari misolida qisman kuzatib o'tish lozim.

Normurod Norqobilovning «Changalzor iti», «Qoyalar ham yig'laydi», «Tog'-u toshlarda», «G'animlar» qissalari tabiat va inson omili o'rtasidagi munosabatni tasvirlash jihatidan diqqatga sazovor. Adibning aksar qissalaridagi bosh qahramonlar hayvonot olamidano'lingan. «Yozuvchi hayvonot, nabotot, jamodotaro aloqalarning o'ta tabiiy tasviriga erisha oladi. Bu, aslida, tabiiy hol: hayvonot, nabotot, jamodot bir ota-ona farzandi. Ular odamday tug'ilganlar»¹.

N. Norqobilov asarlaridagi roviy tabiat qonunlarini obdan o'zlashtirgan, hayvonot dunyosi bilan yaqindan tanishgan. Hayvonlarning xatti-harakatlari xuddi ekran tasvirlarida ko'ringanidek, o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Bir tomondan N. Norqobilov qissalaridagi jonzotlar obrazi, ularning insonga o'xshagan ruhiy kechinmalari, o'ziga xos «qalbi»

¹ *Расулов А. Шайдолик // (Нормурод Норқобилов. Бўрон қўпган кун. (қисса ва ҳикоялар) тўпламига сўз боши): – Тошкент: Шарқ, 2007.*

bilan tasvirlanishi alloma adib Chingiz Aytmatov yaratgan Akbara, Tosh chaynar, Qoranor, Ona Bug‘u, Jaabars kabi «obrazlar» galereyasini esga soladi. Biroq qissa janrining tabiati va tasvir ko‘lamining qamrovi aynan tabiat bilan insonlar aro munosabatlarining badiiy bayoni Normurod Norqobilov ijodida milliy udumlar, milliy kolorit va o‘zbeklar tabiatiga, milliy mentalitetiga xos tasvirlar bilan parallel ravishda olib borilgani bilan farqlanib turadi.

Adabiyotshunoslik ilmidan ma‘lumki, har qanday obraz (xoh ramziy, xoh majoziy bo‘lsin) zamirida inson tasvirlanadi. Yozuvchining ko‘pgina asarlarida yetimlikning qayg‘uli iztiroblari hayvonlar obrazida aks ettiriladi. Bo‘ri bolasi Yoldor yoshligidan ota-onasi va yaqinlaridan ajraladi, kuchuk qoravoyni onasi tashlab ketadi, changalzorda ming mashaqqatlar bilan tirik qoladi. Bu bilan ijodkor o‘zining manfaatlari, o‘tkinchi maishatlari yo‘lida bolasidan voz kechayotgan, jigarbandini bolalar uyiga topshirayotgan mehrsiz ota-onalarga odamiylik sabog‘ini beradi. Go‘daklik iztirobini shu murg‘ak hayvon bolalari orqali ko‘rsatib, bag‘ritosh kimsalarni ogohlikka chorlaydi. Zeroki, bu ham qissa janri tabiatini quruq ijtimoiylikdan psixologik tasvirlar tomon o‘zgarganini namoyon etadi.

Ulug‘bek Hamdamning «Yolg‘izlik» qissasi mohiyat e‘tiboriga ko‘ra insonbotini, o‘zi bilan o‘zining muloqotlari, ichki iztiroblari tarzida ijod qilingani bilan yangilik kasb etadi. N. Eshonqulning «Qora kitob», Sh. Hamroning «Qorakun», Ulug‘bek Hamdamning «Yolg‘izlik» qissalarida individual uslub bilan bir qatorda davr uslubi o‘z muhrini qoldirgan. Chunki yosh yozuvchilar ijtimoiylikdan ko‘ra ramziy ifoda yo‘sinlariga, jahon adabiyotidagi yetakchi uslublarga, xususan, F.Kafka, A.Kamyu singari ekzistensialist G‘arb yozuvchilarining ijodiga ko‘proq qiziqishdi. Yangicha uslub, uslubiy izlanishlar ham bevosita ana shu mutolaaning sintezi sifatida maydonga keldi.

Ulug‘bek Hamdamning «Yolg‘izlik»¹ qissasida ham shakliy, ham mazmuniy yangilanishlar aynan uslubida ko‘zga tashlanadi. Ichki iztiroblar surati chizilgan «Yolg‘izlik» qissasi qahramoniga ism

¹ *Ҳамдам У. ЁЛҒИЗЛИК. — Тошкент: Қатортол-Камолот, 1998.*

qo'yilgan emas. Bunday ismsizlik, qahramonning ismga loyiq topilmagan holatlari Nazar Eshonqul qissalariga ham xos hodisadir. «Yolg'izlik»dagi qahramon ijodkor bir inson. Uning tiynatida turfa olam mujassam topgan. Ba'zida isyonga berilib hayqiradi, ba'zan dono faylasuflardek mulohazalar yuritadi. Uslubiy jihatdan o'ziga xoslik «Yolg'izlik»ning kompozitsion tuzilishida ham ko'rinadi. Qissa uch bo'limdan tarkib topgan. Lekin ularning qamrov ko'lami baravar emas. Qissadagi asosiy voqealar bayoni ikkinchi bo'limda sodir bo'ladi. Birinchi bo'lim qissadagi asosiy voqealar bayoniga kirish-muqaddima vazifasida keladi. Oxirgi bo'limda qissanavisning dil daftari yopiladi. «Yolg'izlik» qissasi voqeanoma emas, unda bir-biri bilan kurashib yotgan, konfliktlarga kirishgan an'anaviy obrazlar tizimi yo'q. Qahramonlarning uzundan-uzoq dialoglari ham berilmaydi. Ko'p qismini qahramonning ichki nutqi tashkil etadi. Ichki monologning imkoniyati keng. Darvoqe, «Personaj nutqi G'arb adabiyotshunosligida ichki monolog deb yuritiladi. Ichki monolog termini modernistik adabiyotga nisbatan ilk bor Eduard Dyujarden tomonidan shu nomli kitobida qo'llangan va hozirgi zamon adabiyotshunosligida undan unumli foydalaniladi»¹. Ichki monolog xususida fikr yuritgan olimlar inson botiniy jarayonlari, ruhiy kechinmalariga diqqat qaratadilar. Shu ma'noda Ulug'bek Hamdamning «Yolg'izlik» qissasida inson ruhi yolamida kechayotgan holatlar qalamga olinadi. Aslida monologik nutq asosiga qurilgan bu tipdagi qissalarda qahramonning o'zidan ortib tevarakka nazar solishi kam uchraydi.

«Yolg'izlik» asarida ruhiy iztiroblar tasviridan keyin qahramonning tevarak-atrofga nazari ham aynan birinchi shaxs nazari orqali beriladi. Xususan: «Shamolda bir maromda shovullab turgan daraxtlarning ochiq derazamdan kirayotgan qo'shig'i meni barvaqt uyg'otdi»² kabi tasvirlar adib uslubining o'ziga xos qirralarini namoyish qiladi. «Yolg'izlik» qissasi an'anaviy qissalarga qaraganda farqlanib, ijtimoiy-maishiy masalalarga urg'u berilmaydi. «Yolg'izlik» muallifi bilan bosh qahramonni (roviyni) tenglashtirish mumkin emasdir, ehtimol. Biroq jahon adabiyotshunosligidagi biografik metod namoyandalari muallifni qahramonlari

¹ Bu haqda qarang. Жураев Т. Онг оқими модерн. — Фарғона, 2009.

² *Хамдам У. Ёлғизлик.* — Тошкент: Қатортол-Камолот, 1998.

bilan yonma-yon qo'yib, badiiy asarni ijodkor tarjimai holi vositasida tadqiq qilishni tavsiya qiladilar. To'g'risi, qissa janrining biografik elementlarni qamrab olishi adabiyotshunoslikda ko'p ta'kidlanadi¹. Masalan, L.N. Tolstoy, M. Gorkiy, G'. G'ulom, Oybek, A. Qahhor yozgan qissalarda shunday xususiyat ko'rinadi. Aynan uslub masalasida ham yozuvchining psixologik holati, temperament, tarbiya topgan muhiti va dunyoqarashini aniq tasavvur qilish ijobiy natijalarga olib keladi.

«Yolg'izlik» qissa qahramoni ijodkor yigit. Ammo ijodiy muhitning nochorligi, behalovat o'tayotgan kunlar uni o'z botiniga qayta va qayta nazar solishga majbur etadi. Bu olamda nima ishlar qilib yurganini qahramon ko'p o'ylab, idrok etadi. Ijodning mashaqqatli yo'llari borasida bosh qotiradi. Bunday epizodlarda qahramon faylasufga aylanadi. Qissaning eng asosiy uslubiy qirralaridan biri qahramon ora-orada o'quvchiga shunday bir tarzda murojaat qiladi: «Tushunyapsanmi, o'quvchi, yozuvchining mehnati-yu asarlari qimmatini qay darajada ekanini idrok etyapsanmi? Hech bir san'at durdonasi faqat sen uchun, sening manfaatiga uchun yozilmasligini payqadingmi, nihoyat?»²

Bunday uslubiy o'ziga xoslikning psixologik asoslari ham mavjud. Aynan Ulug'bek Hamdam shaxsiyatini o'rganadigan bo'lsak, go'zal so'z san'atining tabiati xususida bir talay ilmiy tadqiqotlar olib borgan mutaxassisda bunday fikrlar bo'lishi tabiiy. Ikkinchidan, o'quvchi bilan muloqotga kirishish an'anaviy o'zbek qissalari tarkibida faol darajada uchramaydi. Aynan ana shu jihatlariga ko'ra bu tip qissalarga uslubiy jihatdan yangicha sifatini berish mumkin. Ana shu uslubda yozilgan yangi qissalarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilar ekan, adabiyotshunos U. Jo'raqulov shunday yozadi: «Subyektiv talqin va inson ichki dunyosining tahlili yangi qissachilikning muhim xususiyatiga aylandi. Shu bilan birga,

¹ Қаранг: Кожинов В. Повест. Словар литературоведческих терминов. – Москва: Просвещение, 1974. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академ нашр, 2010.

² Ҳамдам У. Ўша қисса.

makon, zamon, voqea, syujet va arxitektonika kabi badiiy tafakkur unsurlari ham muayyan o'zgarishga uchradi»¹.

Shodiqul Hamroning «Qora kun» qissasi ham aynan uslubiy jihatdan shu toifa asarlar jumlasiga kiradi. Undagi qahramonlarga ham ism qo'yilmagan. Qissada kechadigan hodisalar jinni qiz, somsapaz, qassob, tobutkash usta, folbin xotin, oqsoqol, juvozkash obrazlari orqali bayon etiladi. Qissa mazmun-mohiyatida tragizm kuchli, g'ayritabiiy voqealar bayoni asosiga qurilgan. Masjid oldida turgan, o'liklar uchun gina zarur bo'lgan tobutning to'satdan yo'qolishi, kimlardir olib ketishi o'quvchini bexos xushyor torttiradi. «Qora kun» boshlanishidan darak bergandek bo'ladi. Yozuvchi asari uchun Pushkinning «Ko'ngil jannat istaydi-yu, ammo bo'ynimda gunohlarim ko'p-da...» – degan gaplari epigraf o'rnida tanlanishi ham gunohkor qahramonlar haqida gap ketayotganini anglatib turadi.

«Qora kun»da ramziylik bor. Ayniqsa, yozuvchi tobut detaliga katta vazifa yuklaydi. Yozuvchi voqelik syujetini tobutning o'g'irlanish hodisasiga bog'liqlikda tasvirlaydi. Voqealar qishloqda yuz beradi. Qissaning bir qancha epizodlarida tubanlikning urchib ketganiga urg'u beriladi. Qishloq oqsoqoli juvozkashning uyiga moyolish uchun boradi. Juvozkash yaxshi odam emas. U pok-pokiza zig'ir yog'iga paxta yog'ini aralashtirib sotadi. To'ymas nafsini qondirish yo'lida hech bir tubanlikdan qaytmaydi. Bunday odamlarni oxir-oqibat qora kun kutadi.

Qissada tobut yo'qolishi tasviri vositasida bir qancha odamlarning, kasb egalarining va hatto yosh bolalarning tubanlikka yuz tutgan «men»i – aniqrog'i, ularning qalbida ezgulikdan nom-nishon yo'qligi ko'rsatiladi. Jumladan, bolalar qushlarga azob beradi, tuxumlarini sindiradi, shundan huzurlanadi: «Shu tobda ularning ko'zlariga hech narsa ko'rinmasdi, go'yo qonlarida mudrab yotgan yovuz va shafqatsiz bir tuyg'u birdan junbushga kelgandek, hamma-hamma narsani unutgan qushlarga tuxum otishar, yovvoyi va xunuk tovushda qiyqirib-qiyqirib kulishar edi»². Bolalar odamlarning suyaklarini, bosh chanoqlarini yoqib o'ynaydi. Ular tabiatida qandaydir vahshiylik seziladi.

¹ Журақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.

² Ҳамро Ш. Қора кун. – Тошкент: Ёшлик, 1995. 5-сон.

«Qora kun» qissasida voqealar kechadigan makon va zamon aniq sezilib turmaydi. Bu to'g'rida adabiyotshunos olim Bahodir Karim shunday yozadi: «Qora kun»da mavhum ot va shiddat bor. Muallif voqeahodisalar tasviriga berilar ekan, matnda «allaqanday», «qandaydir», «allaqachon», «allanimalar», «allaqaysi», «nimadir» singari gumon olmoshlarini, shuningdek, «tuyqus», «daf'atan», «kutilmaganda», «butkul», «birdan» kabi holat ravishlarini tinimsiz, hatto me'yoridan ortiq qo'llaydi. Mavhum ot va shiddat – uslubga, bayon etish usuliga daxldor bu xususiyat qissaning mazmun-mohiyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi¹. Olimning uslubga oid qarashlari ham, qisqa jumalardagi tanqidiy mulohazasi ham o'rinlidir.

Ko'rinadiki, 80-yillarning ikkinchi yarmidan bugunga qadar yozilgan qissalarda realistik an'analar negizida modernlashuv tamoyili kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan ularni ikkilanmasdan «yangi qissalar» deb atasa bo'ladi. Bunday qissalarda mif, ong oqimi, inson botiniy olami tasviri, ekzis tensial talqin, ichki monolog, xronotop mavhumoti, qahramonlarning ismsizligi, o'quvchi bilan muloqotga kirishishga intilish kabi qator xususiyatlar ko'zga tashlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. *O'zbek qissalarida tabiat va inson aro uyg'unlikning badiiy talqini haqida so'zlang.*
2. *Qissalar uslubida modernistik tasvir elementlariga misol keltiring.*
3. *«Yolg'izlik» qissasidagi hech bir san'at durdonasi faqat sen uchun yozilmaydi, degan fikrni qanday tushunasiz?*
4. *«Qora kun» asaridagi tobut detalini izohlang.*

Testlar:

1. Normurod Norqobilov qalamiga mansub qissalarni toping.
A. * «Tog'-u toshlarda», «G'animlar».
B. «Dasht-u dalalarda», «Changalzor iti».
S. «Paxmoq», «Cho'l havosi».
D. «Belbog'», «Qora Quyun».

¹ *Karim B.* Badiiy talqin jozibasasi // Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: Faqur Fulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2015.

2. «Hech bir san'at durdonasi faqat sen uchun, sening manfaating uchun yozilmasligini payqadingmi, nihoyat?» Parcha qaysi asardan olingan?

- A. *«Yolg'izlik».
- B. «Belbog'».
- S. «Jamila».
- D. «Erk».

3. «U o'ksib-o'ksib yig'laganida, miq etmagan archalar uni bag'riga oldi», ushbu parcha N.Norqobilovning qaysi qissasidan olingan?

- A. *«Paxmoq».
- B. «G'animlar».
- S. «Belbog'».
- D. «Tog'u toshlarda».

4. «Shamolda bir maromda shovullab turgan daraxtlarning ochiq derazamdan kirayotgan qo'shig'i meni barvaqt uyg'otdi». Parcha qaysi qissadan olingan?

- A. *«Yolg'izlik».
- B. «Paxmoq».
- S. «Qora kun».
- D. «Momo qo'shiq».

5. «Ko'ngil jannat istaydi-yu, ammo bo'ynimda gunohlarim ko'p-da...». Qaysi qissaga epigraf qilib olingan?

- A. *«Qora kun».
- B. «Yolg'izlik».
- S. «Eski arava».
- D. «Billur qandillar».

6. «Tobutning yo'qolishi» qaysi yozuvchi asarida uchraydi?

- A. *Shodiqul Hamro.
- B. Ulug'bek Hamdam.
- S. Nazar Eshonqul.
- D. Abduqayum Yo'ldosh.

Adabiyotlar:

1. Жўраев Т. Онг оқими модерн. — Фарғона, 2009.
2. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. — Тошкент: Фан, 2006.
3. Ҳамро Ш. Қора кун. — Тошкент: «Ёшлик», 1995. 5-сон.
4. Каримов Б. Рухият алифбоси. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.

5. *Кожин* В. Повест. Словарь литература ведческих терминов. — Москва: Просвещение, 1974. с.
6. *Норматов У.* Умидбахш тамойиллар. — Тошкент: Маънавият, 2000. 109 б.
7. *Норқобилов Н.* Бекатдаги оқ уйча: ҳикоялар ва қиссалар. — Тошкент: Шарқ, 2000.
8. *Норқобилов Н.* Брон қопган кун: қисса ва ҳикоялар. — Тошкент: Шарқ, 2007.
9. *Солижонов Й.* Нутқ ва услуб. — Тошкент: Чўлпон, 2002.
10. *Ҳамдамов У.* Бадий тафаккур тадрижи. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. 199 б.
11. *Ҳамдам У.* Ёлғизлик: қисса. — Тошкент: Қатортол-Камолот, 1998.
12. *Ҳотамов Н., Саримсоқов Б.* Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
13. *Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М.* Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Akademnashr, 2010.

REALISTIK TASVIR VA MIF UNSURLARI UYG'UNLAISHISHI

◆ Reja:

1. *Yozuvchining ijodiy yo'li.*
2. *Muallif badiiy niyatini ifodalashda obraz, portret va badiiy detal uyg'unligi.*
3. *Qabohat va razillikning mifologik uslubda tasvirlanishi.*
4. *Hozirgi qissachilikdagi ismsiz va tashqi qiyofasiz qahramonlar tasviri.*

◆ **Tayanch so'z va iboralar:** *asar tili, portret, obraz, detal, badiiy nutq, mif, rivoyat, manera.*

Shoyim Bo'tayev XX asrning 80-yillari o'rtalaridan talabalik davri hayotini ifodalovchi hikoyalari bilan kirib kelgan. Uning «Sirli yulduzlar» nomli ilk qissasi 1984-yilda «Sharq yulduzi» jurnalida chop etilgan. Xuddi shu yiliuning «Dunyoning sarhisobi bor» nomli qissalar to'plami ham nashr etilgan.

Adibning turli yillarda nashr etilgan «Qo'rg'onlangan oy», «Shox» romanlari, «Endi bari boshqacha», «Kunbotardagi bog'», «Hayot», «Ko'chada qolgan ovoz», «Kayvonining mangu makoni» kabi kitoblariga jamlangan hikoya va qissalari o'z uslubi, badiiy ko'lami, mavzular xilma-xilligi jihatidan milliy nasrimizning eng yaxshi an'alarini jahon nasrchiligi yutuqlariga monand ifoda etayotgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda oddiy, sodda, biroq oriyatni barcha moddiylikdan yuqori biluvchi qishloq kishilari hayoti, orzu-intilishlari tasvirlanadi. Asar tag matniga chuqurroq kirib borilsa, ana shu soddalik, sokinlik qadrlarida yashab kelayotgan xalqimiz ma'naviyatiga xos milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar zalvorini his etish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, adib ijodida tog' kishilariga xos fe'l-atvor, samimiy va beg'ubor tuyg'ular, qat'iyat va g'ururni hayotda go'zal, ravon tilda tasvirlanadi. O'quvchi o'z qonidagi genetik kod orqali yashab kelayotgan sezgilari bilan ijodkor tuyg'ulariga kirib boradi.

Adabiyotshunoslikda badiiy asar tili, uslubi, badiiy nutqda o'quvchiga yoki tinglovchiga estetik ta'sir qilish masalasi muhim

sanaladi. Ijodkor shunga muvofiq soʻz tanlaydi. Badiiy uslub obrazli ifodalar, badiiy tasvir vositalari, frazeologik birikmalar, xalq ogʻzaki ijodi namunalari — maqol, matal, rivoyat va hikoyatlar bilan taʼsirchan boʻladi. Bunda muallif niyati va qissa syujetining naqadar keng koʻlamga egaligi katta rol oʻynaydi. Bu oʻrinda koʻlamdorlik deyilganda faqat hajm nazarda tutilmaydi. Bu tushuncha yuqorida sanaganimiz badiiy tasvir vositalaridan tortib, asarning badiiy gʻoyasi, obrazlar va xarakterlarning etik-estetik talqini, konfliktlar va kolliziyalar mazmundorligi, falsafiylik, milliylik, umum insoniylik singari katta tushunchalarni qamrab oladi. Shunday ekan: «Yozuvchining adabiy asarda voqelikni badiiy idrok etishi, obraz yaratishi, asar kompozitsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan individual xususiyatlarning hammasi asar tilida namoyon boʻladi. Yozuvchi qanday voqea va hodisalarni tasvirlashga harakat qilsa, uning asarlarida ham xuddi ana shu voqea va hodisalarni ifodalovchi soʻzlar, til elementlarining koʻproq qoʻllanishi tabiiydir»¹. Uslubda individuallik muhim ahamiyat kasb etib, bu holat qahramonlar va muallif nutqi orqali reallashadi. Oʻz navbatida ijodkordan ham tilning nozik qirralarini va soʻz masʼuliyatini his qilish talab etiladi. Abdulla Qahhorning yosh isteʼdodlarga qarata: «Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani anglatish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon, sodda til kerak»², — degan soʻzlari fikrimizga yorqin dalil boʻladi.

Shoyim Boʻtayevning «Shamol oʻyini» qissasi oʻzbek qissachiligi tarixida realistik tasvir va mif elementlarini uygʻun ifodalashi bilan yangilik hisoblanadi. Qissa togʻlik oddiy insonlarning turmush tarzi, orzu-oʻylari, oʻziga xos urf-odatları, oʻzaro insoniy munosabatlari, maʼnaviy fazilatları bayoni bilan boshlanadi. Qissadagi roviy aytganidek: «Baʼzi birovlarining gʻoyat muboragu, olis-olis kelajak ufqlariga qaratilgan dono nazarlarida hech ish qilmay, shunchaki ivirsib-gʻivirsib yurishgandek koʻringan odamlarning gap-soʻzlariga tuzukroq quloq tutsangiz, ular ham oʻz shaʼnlarini yuqori tutishini astoydil istayotganliklarini sezardingiz. Nainki sezardingiz, vaqti-soati yetib, oʻrni kelganda, hech kimning diliga zahm yetkazmay

¹ Шомақсудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. — Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

² Қаҳҳор А. Асарлар. 5 жилдлик, 5-жилд. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989.

odamgarchilik qilish fikr-u o'yi ekanliklari ham sizga ochiq-oydin ravshan bo'lardi-qo'yardi»¹.

Badiiy asar voqelikning ijodkor ichki sezimi orqali tasvirlanishi ekan, unda har bir so'z, tasviriy ifoda vositalari, badiiy detallar, tabiat tasviri va qahramonlar harakati muallif niyatining real voqelikka qay darajada uyg'un kelganiga qarab o'rta, yaxshi yoki oliy maqom kasb etishi mumkin. Yozuvchi tog'liklar hayoti tasvirida, ularning oddiy odam ko'zi bilan ilg'ash mumkin bo'lmagan nozik tomonlariga urg'u beradi. Tepa qishlog'i ahlining bir maromdagi tinch-osuda hayoti, insoniy munosabatlari jonli tasvirlanadi. Ular o'zlaridan uch-to'rt chaqirim naridagi Oybuloq qishlog'i aholisiga juda ehtiyotkorlik bilan Tepa qishlog'iga ko'chib kelishlarini, birgalikda tinch farovon, ahilinoq bo'lib yashashni taklif qiladi. Chunki gap Vatan haqida, yurt haqida ketayotgan edi. Ehtiyotkorlik qilinmasa, izzat-nafs paymol etilishi mumkin edi. Buni ayniqsa, tog'liklar juda yaxshi anglashadi. Biroq oy buloqliklar: «Oybuloq-yurt. Yurtni tashlab ketib bo'lmaydi...» (7-bet), — deb bu taklifni rad etishadi.

Asar syujeti Oybuloqdagi ko'rgiliklar tasviri bilan boshlanadi. Chunki Oybuloqda yerostidan yonuvchi suyuqlik paydo bo'lgan edi. Turli tayinli-tayinsiz odamlarning kelishi, mahalliy aholiga ta'siri, ajdodlardan meros an'analarning buzilishi, toptalishi natijasida oybuloqliklardan oqibat ko'tariladi. Yozuvchining asosiy maqsadi tinchtotuv umrguzaronlik qilib kelayotgan qishloq hayotiga harom-harish aralashishi oqibatida kelib chiqqan fojialarni tasvirlash edi.

Badiiy adabiyot san'at turi bo'lganligi uchun undagi tasvir san'atkorona nigoh bilan his qilinadi. Tabiat tasviri bo'ladimi, holat yoki qahramon tasvirimi, albatta, kitobxon ko'z o'ngida gavdalinishi lozim. Qissa qahramonlarining tashqi qiyofasi ajabtovur chizilar ekan, ularga xos harakat va holat, gapirish maneralari ham o'sha qiyofaga monand tasvirlanadi. Berkin boyning ovozida «chala damlangan sharning havosi chiqayotgandek ojiz, natovon sas» eshutilishi va shu holatdagi raisning «sovuq terlashi», Berkin boyning o'g'li Barakaning «Mog'or bosgandek pang ovoz chiqarib raisga qo'lini uzatishi» kabi tasvirlarda qahramonlarning surat va siyrati

¹ *Бутаев Ш. Шамол ўйини // Ҳаёт. — Тошкент: Шарқ, 2000. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinib, sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi — D.X.).*

o'rtasidagi mutanosiblik saqlangan. Jahon nasrida ko'p qo'llanadigan mifologik uslub Shoyim Bo'tayev ijodida o'zgacharoq mohiyat kasb etadi. «Shamol o'yini» qissasidagi: «Oybuloq taraf qorayib, changib yotardi. Osmo'ning jamiki xira ranglari, yovuz kuchlari o'sha yoqqa yopirilganday edi. Teskari tomonda kun yorug', quyosh charaqlab yotardi. Bir zamon Oybuloqni butkul bosib olgan qora, xira bulutdan ilonday ingichka bir bo'lak ajralib chiqdi-da, Tepa tomon yo'l soldi. U yo'lida uchragan narsani omon qo'ymas, supurib osmonga havolanar, o'ynatar, o'zi bilan hamroh qilib olib ketaverar edi. Shu bois, Tepaga kela-kelguncha chang-to'zon ustuni ham eniga, ham bo'yiga shunchalik ulkanlashdiki, bu izdihom orasida nima bor-yo'qligini na uzoqdan, na yaqindan bilib bo'lardi» (58-bet) kabi tasvirlarni to'g'ridan-to'g'ri talqin qilish mumkin emas. Osuda hayot tarzini kechirayotgan qishloqqa «ilonday ingichka bir bo'lak ajralib» chiqib, misli ko'rilmagan tarzda kattalashishi adibning qissada aytmoqchi bo'lgan nojoiz turmush tarzi, harom-harishni farqlamaslik asnosida kelib chiquvchi kasofatlar qusuri hammaga urishi mumkinligi, o't tushganda xo'l-u quruq barobar yonishi, ya'ni «birniki mingga, mingniki tumanga» qabilidagi haqiqat ramziy-majoziy uslubda bayon qilinadi. Insonlar orasida mehr-oqibatning yo'qolishi, fahsh ishlarning avj olishi, milliylik o'zanidan chekinish oqibatida paydo bo'lgan xunrezliklar: «Bu maxluqlar quyun yer sahnidan supurib kelgan suprindilar, burdi-balolar orasidan bitday bijg'ib chiqishar, bir-birlarini chavaqlashar, o'zlarining uyat ishlariga shu qadar mashg'ul edilarki, aqalli sal boshini ko'tarib atrofi-javonibga qarab qo'yishni xayollariga keltirishmasdi» (62-bet) tasvirida o'z ifodasini topadi.

Yozuvchining tasavvurida yomonlik, qabohat va razillik hamisha afsonaviy yovuz kuchlar ko'rinishida gavdalantiriladi. Yuqorida tasvirlangan razolatning kirib kelishini yanada yorqinroq namoyon qilish maqsadida quyidagicha tasvir chizadi: «Uning ko'ziga ko'ringani sochlari yoyib tashlanganidan xo'lla po'sh yopingandek tuyulgan *yarim ilon, yarim odam-qip-yalang'och qiz* bo'ldi. Qizning siynalarini qoramtir dog' bosgandi. Za'faron yuzida qotib qolgan allaqanday mash'um ifodalar na o'liknikiga, na tiriknikiga o'xshardi. Ko'zlari dag'dag'ali chaqnar, butun olamni o'ziga jalb etishga shaylangandek edi» (62-bet).

Shamol o'ramasi azaldan xalq tasavvurida jin-parilar, dev-shaytonlarning ishi, yovuzlikning timsoli sifatida tushunib kelinadi. Folklorshunos M. Jo'rayev ...xalq tasavvuricha, quyun sifatida doxil bo'ladigan yovuz kuchlar bevosita odamlarning o'ziga ham ziyon yetkazishi mumkinligini keltiradi¹. U Yaratganning axloqan tuban ketgan qavmlar ustiga yuborgan balosi deb ham talqin qilinadi. Qissaning bu o'rnida muallif Sharq xalqlarida mavjud mana shundaymi fikr tasavvurni yanada kuchaytiradi, unga yovuzlikning konkret qiyofasi aks etgan boshqa detallarni montaj qiladi. Zotan, xalq tasavvurida charx urib aylanayotgan quyun o'laroq qablarga vahima soladigan mifik tasavvurni Sh. Bo'tayev qahramonlari (momo uloq oshida ishtirok etgan kampirlar, — D.X.) ichidan ko'rishadi. Bu esa voqelikda mumkin bo'lmagan hodisadir. Bu bilan yozuvchi qishloqda harom-harishdan chetda turgan shu kampirlargina odamlarning asl holatini, haqiqiy ahvolni bilishga loyiq edi, degan fikrni ilgari suradi. «Qamg'oqdan bir qarichcha yuqoridan quyun naq shiftga tegib, charx urardi. Uning ostki qismida *odam bo'lib odamga, it bo'lib itga o'xshamagan allaqanday jonivorlar* muallaq holatda bir-birlarini ezg'ilab-yanchib yotishardi» (63-6er).

Mifologiyaga doir adabiyotlarda bunday maxluqlar haqida quyidagi ma'lum otga duch kelamiz: «Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa qilgan safarlari davomida boshqa maxluqlar qatorida kino kefallar — it boshli odamlarni ham uchratadi. Aleksandr bu maxluqlarni qora bulut tog'i ichiga haydaydi va yer osti g'origa zindon band etadi»². Yuqorida keltirilgan parchaga e'tibor qilinsa, maxluqlarni olib kelgan quyun ham qora bulut ichidan ilondek ajralib chiqib keyin kattalashadi. Demak, «odam bo'lib odamga, it bo'lib itga o'xshamagan» maxluqlar tasviri qissaga tasodifan kirib qolgan emas, balki Sharq xalqlarining qadim mifologik tasavvurlari bilan bevosita bog'liq. Quyunning asosida turgan qanotli ilon qiz haqida esa A. Afanasev shunday yozadi: «Quyunli shamol bilan bo'ron olib keluvchi qora bulutlarning shiddati qadim odamlarda metaforik tarzda ularning samoviy ilon ekani haqidagi tasavvurlarini maydonga keltirgan»³.

¹ *Bu haqda qarang: Матёкубова Т. Поэтик идрок ва маҳорат. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. — Б. 33.*

² *Афанасев А.Н. Дерево жизни. - Москва: Современник, 1982. — С. 163.*

³ *Афанасев А.Н. Ко'rsatilgan kitob., — С. 25.*

Bunday tasavvurlarning izlarini o'zbek xalq ertaklarida ham ko'p-lab uchramiz. Hatto bu ertaklar tarkibida aynan «Ilon qiz» nomli ertaklar ham uchraydi. Sharqda bu obraz ba'zan donishmandlik, ayyorlik, xayrixoh homiy, ba'zan esa yovuzlik, jin, dev va shayton-larizmidagi qora kuchlar timsolib o'lib keladi. Sh. Bo'tayev qissadan ko'zlagan badiiy niyatini chuqurroq talqin qilish uchun syujetga yuqorida ko'rsatilgan shunday mifologik tasvir elementlarini kiritadi. Natijada asar syujeti samoviy ko'lam kasb etadi. Qolaversa, tabiatan sodda va ishonuvchan qishloq ahli hayotidagi o'zgarishlar, ularga mutlaqo yot odatlarning paydo bo'lishiga munosabatlarini bundan boshqacha yo'sinda tasvirlab ham bo'lmas edi.

Asar boshlanishida endigina Oybuloqdan yonuvchi suyuqlik topilgan, endigina har xil mish-mishlar tarqala boshlagan paytda qishloq ahli «Oybuloqqa jin oralagan!» – degan fikrni aytadi. Niso achaning uyida momouloqning go'shtini yeb o'tirgan kampirlar, Karomat yallachining uyiga kechqurun kirgan Abdusamad lakotni jinlar quvganligini aytadilar. Bu holat quyidagi dialog orqali ifodalanadi, binobarin, ushbu misol ham yuqoridagi fikrimizning haqligini tasdiqlaydi:

– Yarim kechada Abdusamad lakotga u yerda nima bor ekan? – kampirlardan birining og'zi lang ochilib qoldi.

– Vo-oy, soddasiz-da, – tushuntirdi boshqasi.

– Jin deganlari xohlagan odamini xohlagan vaqtida chaqirib olaveradi-da!

– Aloha, o'sha jin qaysidir qarg'ish tekkan joydan, kim bilsin, qandaydir qiyofaga kirib Oybuloqqa ham borgan-u, u yerning alg'ov-dalg'ovini chiqarib yuborgan (8-bet).

Aslida Abdusamad lakotning yarim kechasi Karomat yallachi bilan yong'oq tagida uchrashgani g'iybat qilinishi, fisqi-fasodlarga ko'mib tashlanishi kerak edi. Biroq adibning mahorati shundaki, tasvirlanayotgan kampirlar xarakteridagi soddalik, makr-firibdan xolilik xususiyatlaridan kelib chiqib, tasvirni soddalashtiradi va asarning umum ruhini saqlab qolishga erishadi.

Sodda qishloq ahlining nazdida jinlar ham har xil bo'lishi, odamni esini olib qo'yadigan «ofatijonlar» ko'rinishida, ba'zi birlari kalon-dimog' bo'lib, «ancha yirik ishlar bilan» mashg'ul ekanliklari aytiladi.

Tasvirdagi ramzlar ortiga berkitilgan ma'nolarga chuqurroq e'tibor qaratsa, bunday voqealar yaqin tarixda bizning o'lkamizda bo'lib o'tganligi, ma'naviyatimiz va an'analarimizga yetkazilgan salbiy illatlarning kelib chiqishi aynan shu tarzda kechganligi anglashiladi. Bu holni adib o'z uslubidan kelib chiqib, qahramonlar xarakteri, ularning gap- so'zlari orqali, ya'ni sirli tarzda ifodalaydi. Qishloq kishilari ma'naviyatida yuz berayotgan salbiy illatlar: Qimmat kampirning «mo'min-qobil, qo'y og'zidan cho'p olmagan» o'g'li va «qo'li kosov, sochi supurgi, farosatli» kelini o'rtasidagi janjal, qiyamalikda tinchgina aka-ukalardek halol yashayotgan To'xlivoy, Nabi muallim, Rahimin damas, Vali qassob va ularning xotinlari o'rtasiga tushgan sovuqchiliklarning asl aybdori Yoshi uzoq, Berkinboylarning nahs ishlari, kasofatlari ta'sirida yuz berayotganligi jonli tasvirlarda ochila boradi.

Asarning oxiri ham sirli tarzda yakunlanadi. Qatl qilingan Yoshi uzoq jasadining sirli yo'q olishi, uning hashar yo'li bilan qurilgan uyi o'rnidagi «guvalalar uyumi orasida kaltakesaklar xunuk dumlarini likillatib o'ynab» yurishlari, Berkin boy yashagan uy «bezurriyot ham qishloqlari dunyoi boqiyga hijrati chog'ida qanday tashlab ketgan bo'lsa, shunday kimsasizligicha qo'qqayib» turishi yozuvchining xayoliy tasavvur quvvati bilan bog'liq hodisalardir.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiylik darajasi va uning poetik unsurlar bilan aloqadorligi haqida so'zlang.
2. Asardagi obrazlar, xarakterlar va portretlarning syujet yaxlitligi ta'minlashdagi o'rni haqida gapiring.
3. Kichik vaqt va makonda tasvirlangan qissa syujetiga turli g'ayrioddiy unsurlarning olib kiritilishi asar ko'lamdorligiga qanday ta'sir qilganligiga misol keltiring.
4. «Shamol o'yini» qissasida bir yo'la bir necha mustaqil kichik syujetlar yagona uslub yadrosida uyushtirilganligi haqida so'zlang.
5. Mif va marosim, reallik va mavhumot motivlari birlashtirilishi qanday badiiy konsepsiya bajargan?
6. Yozuvchining turli detallardan portret va xarakter yaratishdagi mahorati haqida gapiring.

Testlar:

1. *Shoyim Bo'tayevning ilk qissasi nomini ayting.*

- A. *«Sirli yulduzlar». C. «Kayvonining mangu makoni».
B. «Shohona sovg'a». D. «Eski arava».

2. *Jin deganlari xohlagan odamini xohlagan vaqtida chaqirib olaveradi-da! Parcha qaysi asardan olingan?*

- A. *«Shamol o'yini». C. «Sho'rodan qolgan odamlar».
B. «Muyulishdagi uy». D. «Bir kunlik mehmon».

3. *Shoyim Bo'tayev qalamiga mansub qissani belgilang.*

- A. *«Kayvonining mangu makoni». C. «Ko'chada qolgan ovoz».
B. «Shox». D. «Qora Klit».

4. *Shoyim Bo'tayev asarlarida uchragan obrazlarni belgilang.*

- A. *Yoshiuzoq, Berkinboy, Baraka.
B. Mels, Normat, Otaqul.
C. Mirzaqul, Yoribek, Yoshiuzoq.
D. Tosh quvvat, Akrom Usmon, Shamsi Saloh.

5. *Qiyamalikda tinchgina aka-ukalardek halol yashayotgan To'xliyoy, Nabi muallim, Rahimin damas, Vali qassob-qaysi qissa qahramonlari?*

- A. *«Shamol o'yini». C. «Oydinda yurgan odamlar».
B. «Momo qo'shiq». D. «Belbog'».

Adabiyotlar:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 1-жилд. — Тошкент: Фан, 1991.

2. *Афанасев А.Н.* Дерево жизни. — М.: Современник, 1982.

3. *Бўтаев Ш.* Ҳаёт: қиссалар. — Тошкент: Шарқ, 2000.

4. *Бўтаев Ш.* Кўчада қолган овоз. — Тошкент: Маънавият, 2005.

5. *Бўтаев Ш.* Кайвонининг мангу макони (этрак-қисса). — Тошкент: O'zbekiston, 2011.

6. *Имомова Г.* Миллийлик ва бадиий нутқ. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.

7. *Карим Б.* «Кўз»нинг поэтик моҳияти // Бадиият уфқлари. — Тошкент: Университет, 2008.

8. *Матёқубова Т.* Поэтик идрок ва маҳорат. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2011.

9. *Саримсоқов Б.* Бадиийлик асослари ва мезонлари. — Тошкент: 2004.

QISSALARDA O‘TMISH FOJIALARINING AKS ETISHI

◆ Reja:

1. *Sho‘ro tuzumidan jabr ko‘rgan kishilar fojiasining badiiy talqini.*
2. *O‘z fojiasini anglab yetmagan taqdirlar qismati.*
3. *Ismsiz qahramonlar.*
4. *XX asr 80-yillari siyosatining mudhish oqibatlarini tasviri.*

Tayanch so‘z va iboralar: roviy, tip, ismsizlik, irsiyat, diyonat, shuur, sho‘ro, kommunistik mafkura, syujet ko‘lamdorligi.

Mustaqillik arafasi va mustaqillik yillarida yaratilgan ko‘pgina qissalarda sho‘ro tuzumidan jabr ko‘rgan kishilar fojiasi, kommunistik mafkurani e‘tiqod qilib singdirilishi oqibatida paydo bo‘lgan salbiy illatlar, din-diyonatdan mosuvo bo‘lgan inson siyratidagi evrilishlarni tasvirlash yetakchi mavzuga aylanib qoldi. Shu ma‘noda Shoyim Bo‘tayevning «Sho‘rodan qolgan odamlar», «Eski arava», «Shohona sovg‘a» qissalari sobiq tuzumdan aziyat chekkan kishilarning fojialarini tasvirlagani bilan ahamiyatlidir.

Yozuvchining «Sho‘rodan qolgan odamlar»¹ qissasidagi akakalarning xudbinligi, beoqibatliklari va hayotdagi fojiasi birma-bir ochila boradi. Asarning dastlabki qismidayoq adib roviy siyomosida o‘zining munosabatini bildirib o‘tadi. Ya‘ni kitobxonni asar ruhiga kirgizishga harakat qiladi.

«Uka ketdi.

Aka qoldi.

Ular na Kechani eslashdi! (314-bet).

Ilk jumladayoq asarning butun mazmuni, adib aytmoqchi fikrlarning, asar syujetining, muallif badiiy niyatining asosi aks etib turibdi. Inson tafakkuri va shuuri o‘zidan-o‘zi shakllanib

¹ *Бўтаев Ш. Шўродан қолган одамлар// Ҳаёт. — Тошкент: Шарқ, 2000. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinib, sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi — D.X.).*

qoladigan hodisa emas. U minglab yillar mobaynida sayqallanadi. Irsiyat qonunlariga bo'ysunadi. Insoniyat ustida o'tkazilgan har qanday notabiiy qonuniyatlar uning tanazzuliga olib keladi. O'z «Kecha»sini anglamagan, «olis dunyolar nasimlaridan» bexabar insonning taqdiri qanday bo'lishi, fojialar girdobiga tushishi, ayniqsa, o'zining fojiasini anglab yetmasligini asardagi qahramonlar nutqi orqali tasvirlash imkoniyati yo'q edi. Shu o'rinda roviy nutqining kiritilishi qissaning qimmatini oshiradi. Zero, asardagi roviy obrazi adib maqsadi va niyatini amalga oshiruvchi qahramon ekanligini hisobga olganda, adib ideallari asar syujetining ko'lamdorligi va uni ushlab turuvchi qizil ip roviy obrazi, uning badiiy nutqida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda qissashunos A. Xolmurodovning bu tip qahramonlar haqida: «...ular sho'ro tuzumi azobini tortgan jabrdiyda insonlar, turmushning ayanchli onlari ular qiyofasida o'z aksini topgan»¹, — degan fikrini eslab o'tish o'rinli.

Asar davomida Nazoratchining laqmaligi, amakining xudbinligi ochila boradi. Qissaning biror joyidan nazoratchining, na amakining qulog'iga azon aytib qo'yilgan ismlari aytilmaydi. Aslida ham ularni ismi bilan aytish lozim ko'rilmaydi. Keyingi yillar nasrida ism aytmaslik an'anaga ham aylanib qolmoqda. Ijodkor o'z niyatlarini o'quvchiga yetkazish uchun turlicha uslub vositalaridan foydalanishlari mumkin va bu jarayon barcha xalqlar adabiyoti tajribasida sinalgan. Shu nuqtai nazardan keyingi yillar qissachiligida ko'zga tashlanayotgan ismsiz va tashqi qiyofasi aniq tasvirlanmayotgan qahramonlar, syujetning universal darajada kengligi ko'zga tashlanyapti.

Adibning «Shoho na sovg'a»² qissasi mavzusi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. «Sho'rodan qolgan odamlar» qissasida sobiq sho'ro tuzumi ta'sirida shakllangan manqurt odam obrazi yaratilgan bo'lsa, «Shohona sovg'a» asari qahramoni ziyoli, vazir lavozimida ishlab, nafaqaga chiqqan. U ham sho'ro siyosatining «har qanday boylik ekspluatatsiyaga olib boradi» degan o'ta soxta siyosatini o'z taqdiriga dastur qilib olgan. Haqiqatan, sho'ro davrida qashshoqlik, kamba-

¹ *Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари (XX аср сўнги чораги): Филол. фан. доктори... дис. — Тошкент: 2008.*

² *Бутаев Ш. Шоҳона совга // Кўчада қолган овоз. — Тошкент: Маънавият, 2005.*

g'allik ulug'lik kasb etgan. O'z tarjimai holini yozayotgan kishilar «kambag'al dehqon», «kambag'al ishchi», «oddiy xizmatchi» kabi sifatii belgilarni yozishni xush ko'rishgan. Bu hol yo'qsillar mamla-kati aholisiga bir martabaday, hamma bir xil teng qashshoq degan maqomni bergan. Bu siyosat yoshlikdan singdirilgan. Halollik degan tushunchani faqat moddiyatga qiziqmaslik, deb tushungan vazir bobo na bolalari tarbiyasi bilan shug'ullangan, na qarigan chog'ida o'ziga boshpana qilgan. Natijada xor-zorlikda o'lim topgan. Fojia shun-daki, umr poyonida ham Dehqon qulga o'xshab o'zining umr maz-munini anglamay o'tgan.

Asar qahramoni arab mamlakatlari podshosiga «Biz qimmatbaho narsalardan hazar qilamiz, biz mehnatkashlar vakilimiz, boy un-surlarni mamlakatimizdan yo'qotganmiz» — degan so'zlarni aytadi.¹

Asarga kiritilgan «hassa» detali tagida katta ma'no bor. Xalqimizda «Ko'rga hassa» degan ibora be'jiz ishlatilmaydi. Qari podshoning vazirga ataylab hassa sovg'a qilishining ramziy ma'nosi bor. Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, moddiyat va ma'naviyat masalalari doimo egiz yuradi. Ularni shakl va mazmun singari bir-biridan ayro tutish mumkin emas. Adibning maqsadi bir xil qabul qilinishi mumkin bo'lgan tushunchalarni ajratish insonni, jamiyatni halokatga olib borishini ta'kidlash edi.

Yozuvchining «Eski arava»² qissasi ham ijodkor fantaziyasining mahsuli hisoblanadi. Qissada kitobxonga yaxshi tanish bo'lgan N.V. Gogolning «O'lik jonlar» asaridagi Pavel Ivanovich Chichikov va uning malaylari Selifan, Petrushka, ham tovoqlari Sobakevich, Manilov, Plyushkin, Koshkarevlarning O'zbekistonga kelishi, o'sha davrdagi amaldorlarning ularga ko'rsatgan laganbardorligi tasvir-lanadi. 80-yillar o'rtalaridagi O'zbekiston sobiq rahbarlarining mar-kazdan «halollik o'rnatish uchun rahbar kadrlar» so'rashi natijasida yurtimizga kelib qolgan har xil toifadagi odamlar xarakteri va kirdikorlari adibning ramziy-ironik uslubi orqali ochib beriladi.

Pavel Ivanovich Chichikov o'z malayi Selifan bilan quyidagicha suhbat quradi:

¹ *Бумаев III*. Shu kitob.

² *Бумаев III*. Эски арава //Хаёт. — Тошкент: Шарқ, 2000. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinib, sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi — Д.Х.).

– Shoshma-shoshma, sen qandaydir yetti qavatli bir manzilning eng pastki qavatida qiynalib ancha vaqt yotdingmi?

– Men sizdan balandroqda, uchinchi qavatda edim, – dedi Selifan tirjayib.

– Oz-moz ichib turganimizni hisobga olishmaganda-ku, naq behishtning o‘zidan joy tegarkanku-ya. Ammo-lekin, sizning gunohlaringiz ko‘p ekan. Yaxshi odam edingiz-ku, xo‘jayin. Shuncha gunoh orttirganingizni payqamay ham qolganimni qarang (130-bet).

Sezgir kitobxon anglaydiki, O‘zbekistonga «oqib» kelgan kishilarning ko‘pchiligi jinoyat olamiga aloqador, o‘z yurtida qo‘nim topmagan, o‘g‘ri-kazzoblar edi. Bunday insonlar tavsifini adib Chichikov tili bilan quyidagicha ta‘riflaydi:

– Voy ifloslar-ey, vo-oy, la‘natilar-ey! – dedi bo‘g‘riqqancha. – Sizlar kimga kerak bo‘lib qolibsizlar? Siz aroqxo‘rlarga, siz maymunlarga, siz dangasa-ishyoqmaslarga ja-a bironing ko‘zi uchib turibdi ekan-da... (131-bet). O‘zbekistonning o‘sha vaqtdagi rahbarlari o‘z yurtiga shunday odamlarni chaqirtirib, rahbarlik lavozimlari bilan siylashgan. Ularga barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Selifan aytganday: «ular uy-joylardan g‘am chekmagan».

Qissada mustamlakachilik siyosatining mudhish oqibatlari, o‘zga millat urf-odatlarini anglamay o‘zlashtirib olishlar ramziy-majoziy uslubda ochila boradi. Chichikovni kutib olish uchun atlas ko‘ylakli qizning non-tuz ko‘tarib chiqishi, erkak kishilarning o‘pishishlari, sarimsoqpiyoz hidi, devorlarga chizilgan suratlardagi qor, qayinlar, qo‘ziqorin terayotgan qiz rasmi o‘z ma‘nosiga qaraganda kengroq mohiyat kasb etadi. Yozuvchining salbiy holatlarga qahramonlar tili yoki munosabati orqali fikr bildirish uslubi qissaning qimmatini yanada oshiradi.

Shu o‘rinda qissa qahramonlaridan biri Nishonboy Hurzamonovich obrazi juda xarakterli tasvirlangan. U qullik siyosatini amalga oshiruvchi, barcha topshiriqlarga o‘ylamay labbay deb turuvchi rahbarlarning tipik vakili darajasiga ko‘tarila olgan. Nishonboy Hurzamonovichning Chichikov bilan bo‘lib o‘tgan suhbatlari juda jonli, ishonarli tasvirlangan.

– Yurtingizda ofatlar bo‘lib turadimi? – deb so‘radi u Nishonboy Hurzamonovichga qarab.

Qo'qqisdan berilgan bu savol Nishonboy Hurzamonovichni shoshiltirib qo'ydi, u hushini yo'qotganча:

– Tashkil qilamiz! – deb yubordi.

– Pavel Ivanovich kuldi.

– O, yo'q! – dedi u. – Ofatlar degani tabiiy hodisa. Axir, Sizning qo'lingizdan kuchli qor yoki yomg'ir yog'dirish kelmaydi-ku? To'g'rimi?

– Siz uchun keladi, Pavel Ivanovich...

– Rahmat,rahmat! Itifotlaringiz uchun tashakkur! Shunday gaplarni gapirasizki, xuddi Xudo yuboradigan vabo-balolarni ham o'zingiz tarqata oladigandek-a...

– Siz uchun tarqatamiz, Pavel Ivanovich... (142-bet)

Nishonboy Hurzamonovichni kuzatib turgan Chichikov ham uning esi joyidami, yo'qmi degan fikrga boradi. Sho'ro zamonidagi aql bovar qilmas rejalarining qabul qilinishi, uni bajarish uchun ommaviy safarbarliklar oqibatida yosh bolalar mehnatidan foydalanish, onalarning kamqonlik kasaliga muhtalo bo'lishi, na issiqni, na sovuqni bilmay boshi faqat mehnatdan chiqmaydigan, faqat dalasini o'ylaydigan dehqon qullarning paydo bo'lishiga Nishonboy Hurzamonovich singari qo'g'irchoq rahbarlar sababchi bo'lganligini tarix hali unutganicha yo'q. «Tashkil qilamiz!», «Siz uchun tarqatamiz» – degan qulliqona so'zlar oqibatida Orolning qurishi, ona tabiatning, zaminning ifloslanishi, nobop tarbiyasi bolalar, nazokatdan, nafasatdan uzoqlashgan ayollar, imon-e'tiqoddan bexabar insonlarning voyaga yetib qolishida ana shunday quruq siyosatlar sababchi bo'lgan edi. Asarning ramziy asosga qurilishi natijasida qissa syujeti na faqat milliy, balki umum insoniy ko'lamga ega bo'lgan. Sho'rolar siyosatining insoniyat erki, g'ururi, o'zligi, ma'naviyati deb atalgan qadriyatlarga tajovuzi obraz va xarakterlar tasvirining o'ziga xos uslubda bayon etilishi orqali ochib berilgan.

Asardagi Zamzam to'ra obrazi ham nihoyatda jonli tasvirlangan. Uning portreti: «... bahaybat sallali, egnida uzun rido, qo'lida tasbeh, bo'ynida but, ishqilib, musulmon bo'lib musulmonga, nasroniy bo'lib nasroniyga o'xshamaydigan sap-sariq chuvak yuzli birkishi» (149-bet) – tarzida o'ziga xos tasvirlanadiki, mustamlaka tuzum davrida imon zaifligi, e'tiqod sustligi yaqqol namoyon bo'lib turadi.

Shoyim Bo'tayevning «Muyulishdagi uy»¹ qissasi zamonaviy detektiv mavzuga yaqin uslubda yozilgan. «Badiiy nasrning murakkabligi shundaki, — deb yozadi adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov, — ijodkor asar ruhini, qahramonlar xarakterini o'ta ishonarli, nozik tasvirlay bilishi kerak. Boshqacha aytganda, asardagi har bir so'z, fikr kim tomonidan, qanday kayfiyatda aytilayotganligi ma'lum bo'lishi kerak. Badiiy asardagi so'zlar, tasvirlar, kartinalar uslubni belgilaydi. Uslub, ta'bir joiz bo'lsa, asarning asab torlari, qon tomirlari, joni»².

«Muyulishdagi uy» qissasiga kiritilgan har bir obraz, tasvir, voqealik bir-biriga uzviy yaxlitlikda olib boriladi. Bosh kotibni kutib olishdagi ovoragarchiliklar, Yoribekning shaharga kelishi, Toshquvvat bilan kechadigan sarguzashtlar, Said Mavlaviy, Asad, Nazokat, Otajon, Musa, Usmon Akram kabi odamlar bilan tanishuv, asar ichiga kiritilgan Toshquvvatning «Hayotim yo'llari» qissasi 80-yillar tipik sharoitini yoritishga xizmat qilgan.

Asardagi Yoribekning tog'asi Usmon Akram obrazi o'ziga xos tarzda yoritiladi. Uning tasviri asarning boshida bir marta berilsada, kitobxon xotirasida saqlanib qoladi. Uning gapirish maneralari ham o'ziga xos, xudbinlikdan iborat:

— Xo'-o'sh, qalay endi. Uydagilar sog'-omonmilar?

— Durust... Salom aytishdi...

— Tuzuk, tuzuk; salomat bo'lishsin. Bugun kelganmidilar?

— Ha-a.

— Tuzuk, tuzuk; yaxshi qiptilar. Mehmonxona-pehmonxonaga joylashib oldilarmi, yoinki bugunoq qaytmoqchimilar... (170-bet).

Tog'a-jiyanning qisqagina suhbatidan anglashiladiki, katta yozuvchi Usmon Akram tug'ishgan jiyani oldida ham o'zini xudbinona tutadi. «...sog'-omonmilar?», «bugun kelganmidilar?», «yaxshi qiptilar», «joylashib oldilarmi, yoinki bugunoq qaytmoqchimilar...» — kabi jumalalarda takabburlik, mensimaslik, xudbinlik bo'rtib turadi. Insondagi xudbinlik illati barcha

¹ Бўтаев Ш. Муюлишдаги уй // Ҳаёт. — Тошкент: Шарқ, 2000. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinib, sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi — Д.Х.).

² Расулов А. Тававлуд топаётган кўнгил муждалари // Ш.Бўтаев. Ҳаёт (китобга сўнг сўз). — Тошкент: Шарқ, 2000.

zamonlarda, barcha toifa kishilarda uchraydi. Badiiy adabiyotda bu illatni fosh qiluvchi asarlar ham talaygina.

Qissadagi Toshquvvatdan oliygohga kirish imtihonlarini olgan «burni tanqaygan adabiyotchi», «rangi zahil, chillashirday til-shunos», professor Mirsolmon Mirqorievich, muxbir Said Mav-laviy, skripkachi Asad obrazlari qisqa o‘rinlardagina uchrasa-da, adibning 80-yillardagi ta‘magirlik, poraxo‘rlik, xudbinlik illatlar ijodkorlar, ziyolilar orasida ham avj olganligiga ishorasi edi. Kuchli tafakkurning yovuzlikka ham xizmat qilishi, jamiyatni tanazzulga olib borishi mumkinligi professor Mirsolmon Mirqorievich obrazi orqali reallashtiriladi.

O‘z yaqinlaridan madad ololmagan yosh ijodkor nohaq qamalib chiqqan Toshquvvatdan yaxshilik ko‘radi. Uning yordamida hayotning baland-past tomonlarini o‘rganadi, katta hayotga toblanib chiqadi. U bilan bog‘liq epizodlarda adib hayotdagi illatlarni ochishga intiladi. «Hamma gap shapkasida, bizning jamiyatimizning mohiyatimam, bo‘lgan-turganiyam, afti-angoriya mana shunda!» (212-bet) — degan gaplarni aytadi, Toshquvvat. Asardagi Toshquvvat obrazi hayotda adashgan, pul-boylik ketidan quvib, umrini xazonga aylantirgan, oxirida afsus-nadomatga tushib, insonlik sha‘-nini yo‘qotmagan kishilarning vakili. U yaqinlaridan ajragan, ota qarq‘ishini olgan. Biroq u Yoribekka hayotdan o‘z o‘rnini topib olishida katta yordam beradi.

Qissadagi barcha qahramonlar XX asrning 80-yillarida aynan bizning yurtida yashagan, mudhish siyosat oqibatida o‘zligini unutgan kishilarning tipik xarakteri edi.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiylik darajasi va uning poetik unsurlar bilan aloqadorligi haqida so‘zlang.
2. Asardagi obrazlar, xarakterlar va portretlarning syujet yaxlitligi ta‘minlashdagi o‘rni haqida gapiring.
3. «Sho‘rodan qolgan odamlar» qissasidagi ismsiz qahramonlarni qanday izohlaysiz?
4. Mirsolmon Mirqorievich, Usmon Akrom obrazlari haqidagi fikrlaringizni izohlang.

Testlar:

1. Said Mavlaviy, Asad, Nazokat qaysi asar qahramonlari?

- A. *«Muyulishdagi uy». S. «Eski arava».
B. «Shamol o'yini». D. «Bir kunlik mehmon».

2. «Hayotim yo'llari» qissasi qaysi asar syujetiga kiritilgan?

- A. *«Muyulishdagi uy». S. «Kayvonining mangu makoni».
B. «Shohona sovg'a». D. «Shamol o'yini».

3. Sh. Bo'tayevning qaysi asari rus yozuvchisi N.V. Gogolning «O'lik jonlar» asari qahramonlarining O'zbekistonga kelishi bilan tasvirlanadi?

- A. *«Eski arava». S. «Qo'rg'onlangan oy».
B. «Shox». D. «Ko'chada qolgan ovoz».

4. «Biz qimmat baho narsalardan hazar qilamiz, biz mehnatkashlar vakilimiz, boy unsurlarni mamlakatimizdan yo'qotganmiz». Parcha qaysi asardan olingan?

- A. *«Shohona sovg'a». S. «Sho'rodan qolgan odamlar».
B. «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi». D. «Momo qo'shiq».

5. «... bahaybat sallali, egnida uzun rido, qo'lida tasbeh, bo'ynida but, ishqilib, musulmon bo'lib musulmonga, nasroniy bo'lib nasroniyga o'xshamaydigan sap-sariq chuvak yuzli bir kishi». Parcha qaysi asardan olingan?

- A. *«Eski arava». S. «Muyulishdagi uy».
B. «Shamol o'yini». D. «Shohona sovg'a».

Adabiyotlar:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 1-жилд. — Тошкент: Фан, 1991.
2. Бўтаев Ш. Ҳаёт: қиссалар. — Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Бўтаев Ш. Кўчада қолган овоз. — Тошкент: Маънавият, 2005.
4. Бўтаев Ш. Кайвонининг мангу макони (эртақ-қисса). — Тошкент: O'zbekiston, 2011.
5. Имомова Г. Миллийлик ва бадий нутқ. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
6. Матёқубова Т. Поэтик идрок ва маҳорат. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2011.
7. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. — Тошкент: 2004.
8. Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари (XX аср сўнги чораги): филол. фан. д-ри... дис. — Тошкент: 2008.
9. Шомаҳсудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. — Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

MAISHIY-AXLOQIY MUAMMOLARNING BADIY TALQINI

◆ Reja:

1. *Qissa syujetining o'ziga xos xususiyatlari.*
2. *Sh. Bo'tayevning syujet qurishdagi o'ziga xos mahorati.*
3. *Axloqiy muammolar va tarixiy rivoyat.*
4. *Moddiy-ma'naviy holatlarning nutqiy ko'rinishda namoyon bo'lishi.*

Tayanch so'z va iboralar: syujet, syujet turlari, rivoyat, ichki to'qnashuvlar, konflikt va kolliziya, peyzaj, badiiy nutq.

Ijodkorlar badiiy asarning bevosita mazmun-mohiyatini tashkil etadigan, o'zaro ichki bog'lanishga ega hamda rivojlanib boradigan hayotiy voqealar tizimini o'z poetik tafakkuriga mos ravishda ishlab chiqadi. Demak, uslub yozuvchining o'zligiga dalolat qiladigan bo'lsa, bu jihat birinchi navbatda asar syujetining qanday tashkil etilganida ko'zga tashlanadi.

«Shamol o'yini» qissasi sirli hodisalarni uyushtirish, irim-sirimning qissa mohiyatiga singdirib yuborilishi, qahramonlarning favqulodda tabiati jihatidan o'ziga xoslik kasb etadi. «Shamol o'yini» qissasida maishiy, oilaviy va umum insoniy masalalar qalamga olingani uchun davrning o'tkinchi muammolari unchalik ko'zga tashlanmaydi. Adibning bu qissasidagi uslubiy o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi? Qaysi qirralar Sh. Bo'tayevning syujet qurishdagi mahoratini, uslubdagi o'z ijodiy «men»i namoyon qiladi?

Qissada real voqelik bilan g'ayritabiiy, favqulodda, to'satdan yuz beradigan sirli hodisalar uyg'unlikda tasvirlanadi. Oybuloq qishlog'idagi alg'ov-dalg'ovli holat, Tepa qishlog'ida to'satdan paydo bo'lib qolgan Berkinboy, kampirlarning momouloq bazmi yoki jinlar bazmi tasvirlangan o'rinlarda voqelikdagi real hodisalar va badiiy to'qima, tarixiy rivoyat va mifik voqelik uyg'unlashtiriladi. Yozuvchi Oybuloq bilan Tepa qishlog'i odamlarini, qissa oxirida Qum qiyalikdagi to'rtta xonadon ahlini o'zaro taqqoslagan holda o'z oldiga qo'ygan g'oyaviy-badiiy maqsadini amalga oshiradi. Tinch-

farovon, birov bilan birovning ishi bo'lmagan, bahamjihat yashayotgan Tepa qishlog'i ahli orasiga Berkinboy, so'ngra, asosiy obrazlardan biri sifatida tasvirlangan — Yoshi uzoq kirib kelgandan keyin vaziyat o'zgaradi. Qishloqdan baraka ko'tariladi, yovuzliklar yuz beradi, nopokliklar avj oladi. Asarning shu o'rni qissa syujet chizig'ida tugunni tashkil etadi. Qissaning va muallifning syujetni tashkil etish mahoratining o'ziga xosligi shundaki, tugunning yuzaga kelishi voqealar oqimi tasviri orqali emas, balki qahramonlarning tugunni keltirib chiqargan voqeaga ichki — subyektiv munosabati tarzida ifodalanadi. Professor A.Rasulov ta'biri bilan aytganda: «Berkinboyni qora tortib qishloqqa horamxo'r, g'irrom, maishiy buzuq Yoshiuzoq» kirib kelgandan keyin «tepaliklar boshi g'alvadan, har xil tabiiy, ijtimoiy falokatlardan chiqmay qoladi»¹. Asar syujeti to'lig'icha mana shu — Tepa qishlog'i ahli hayotida ro'y bergan favqulodda hodisa talqiniga bag'ishlanadi. Syujet tuguni, qishloq boshiga oqib kelayotgan falokatlar sababi o'quvchiga ma'lum bo'lsa ham, uning sar ichki dunyosida odamlarga sirli hodisa sifatida ko'rinishi syujetning badiiyligi, tugunning sirliligini ta'minlaydi. Asar oxirida chiqarilgan hissaning salmog'ini oshiradi. Umumiy tarzda, milliy ma'naviyatga doir muammolarni o'rta tashlashga, ularning sabab va oqibatlarini anglashga xizmat qiladi. Demak, yozuvchi poklik, halollik, to'g'rilik inson umri, jamiyat hayoti, oila totuvligi uchun juda muhim degan ulug' bir fikrni o'z qissasi mohiyatiga singdiradi. Bu jarayonda turli badiiy tasvir vositalaridan, turli obrazlardan foydalanadi. Qissa avvalidagi tig'iz xayol bilan real hayotning o'zaro uyg'unlashgan biroz sirli tasviri asar oxiriga borib teranlashadi. Tilak mirishkor, Mirzabobo obrazlari qissa syujetida muhim ahamiyat kasb etadi, o'quvchida yaxshi taassurot qoldiradi. Eng muhimi, Shoyim Bo'tayev qissasidagi obrazlar o'zaro zanjirdek bog'lanib, syujetning keng qamrovli estetik ta'sirga ega bo'lishini ta'minlab boradi. Tilakmirishkor Mirzabobo bilan, Mirzabobo Berkinboy bilan, Berkinboy Yoshiuzoq bilan jips bog'langan.

¹ Rasulov A. Таваллуд топаётган кунгил муждалари // Ш. Бўтаев. Ҳаёт (китобга сўнг сўз). — Тошкент: Шарқ, 2000.

Voqealarning xronologik tasvirida ham ichki struktural zanjir sezilib turadi. Ora-orada kampirlarning Nisoachaning uyida momouloq bazmini o'tkazishlari – syujet voqealari orasida asosiy bog'lovchi vazifasini o'taydi. Bu marosim takrorlangani sayin qishloqqa Berkinboyning kirib kelishi bilan boshlangan tugunning yechimiga qarab boriladi. Qolaversa, bunday sirli tasvirlar qissaga o'zgacha ruh bag'ishlaydi. Kampirlarning gap-gashtaklari, o'zaro suhbatlari tasvirlangan sahifalar qissa voqealariga qishloqda an'ana bo'lib kelayotgan ma'naviy oqimning ham tasviri hisoblanadi. Go'yo kampirlar qishloqdagi voqealarni, odamlarning ahvolini o'zlarining qarichlari bilan o'lchab, baholab borayotgandek, aslida esa yozuvchi qissa syujetining shu halqasi vositasida ma'naviyatsizlikka qarshi ajdodlarning o'lmas ma'naviy an'analarni qo'yadi. Jaholat va shayton vasvasasi tomon yuztuban ketayotgan qishloq odamlari hayotidagi muvozanatni shu orqali namoyon etadi. Bu bilan tarixiy axloq an'analari bor joyda jaholat va g'ayri axloqiy o'lchamlar puchligi haqidagi umum milliy g'oyani oldinga suradi.

Qissa syujet chizig'ida alohida kichik syujet ko'rinishini olgan momouloq rivoyati umummatn mohiyatiga, yozuvchining g'oyaviy niyatini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Tepa qishlog'iga Berkinboy va Yoshi uzoq tipidagi bema'ni, haromxo'r kimsalar oralagandan keyin ana shu momo uloq an'anasi ham odamlarning esidan chiqa boshlaydi. Qissaning syujetiga singdirilgan va alohida o'ziga xos voqea sifatida bayon etilgan momouloq rivoyatining xalq og'zaki ijodiga muvofiq keladigan o'z uslubi bor. Undagi voqelik bayoni o'tgan zamon hikoya fe'li asosiga quriladi. Shu bilan birga «o'tirar ekan», «o'tgan ekan» tarzidagi gap qurilishi bilan qissa syujetiga tarixiy salmoq bag'ishlaydi.

Adib asar syujetini retrospektiv shaklda qurar ekan, bu bilan bir qishloq va u orqali butun jamiyatning muayyan manzarasini tiklashga erishadi. Bosh qahramon holati uning xotirasida shunga mos hodisalarni yuzaga keltiradi. Bu voqelikni chuqur tahlil qilish yozuvchiga voqea va qahramonlarni turli rakursdan ko'rsatish imkonini beradi. Zotan, bu xususiyat ham yozuvchi ijodining uslubiy qirralarini namoyon etadi.

Syujetning qiziqarli bo'lishi ijodkorning mahorati bilan belgilanadi. Shoyim Bo'tayev inson tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lgan

o'ta murakkab hodisalarni qisqa sirli imo-ishora tarzida ko'rsatadi, ba'zan qahramonlar bilan bog'liq voqealarni asar oxirigacha sir saqlaydi. Bu holat kitobxonga huzur bag'ishlaydi, voqealar davomini tezroq bilishga undaydi.

Yozuvchining «Bir kunlik mehmon» qissasi syujeti ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yigirma yillik sobiq kursdoshlar Saidmurod va Xolmo'minlarning uchrashuvi, asar syujetiga asta-sekin kirib keluvchi Abdi, so'pi va uning kelini bilan bog'liq turli mish-mishlar, to'ydagi mashmashalar, ming yillik chinor bilan bog'liq voqealar, elchi bovaning boshidan o'tgan sarguzashtlarida inson ma'naviy-ruhiy olamida mavjud bo'lgan murakkab, ziddiyatli holatlar o'ziga xos tarzda ochila boradi. Ayniqsa, qishloqda So'pining uyiga o't ketishi haqidagi xabar tarqalgandan keyingi voqealar tasviri kitobxonni o'ylashga, ramzlar ortiga yashiringan sirlarni bilishga undaydi. Qissa qahramonlaridan biri elchi bovaning: «Bolalik supasidan tushdingmi, bas, zulmat seni bag'riga tortib ketadi. Oh-oh, qanchalar aysh-ishrat, kayf-safo, zahar-zaqqumlar jo bo'lgan ekan-a, bu bag'irga! Sen shunda boladan farqli o'laroq, qo'rqmay qo'yasan, nega deganda, o'zing ham zulmatiyga aylanasan. Zulmatiyning rohat-farog'atiam, aysh-ishratiyam, hayotiyam, maqsadiyam zulmat. Ana shunda u supaga abadul-abad qaytib chiqolmayсан»¹, – degan gaplari o'quvchini chuqurroq mushohada qilishga undaydi. Farishtalar ham sajda qilgan inson bolalarining o'ta qabariq fe'l-atvori zulmat qo'ynida: natush, na o'ngda sodir bo'layotgani noaniq bir tarzda tasvirlanadi. Zulmat qo'ynida insonning kim va nima ekanligini anglatishga harakat qiladi.

Asar syujetining bu tarzda namoyon bo'lishi undagi hikmat, rivoyat va real voqelikning qorishiq tasvirlanishi, tugun, kulminatsiya va yechimning qissadan-qissaga, asardan-asarga o'zgarib, mukammallashib borishi Sh. Bo'tayev uslubiga xos muhim xususiyat hisoblanadi. Personajlar nutqining individualligi, gender psixologiyasi nuqtai nazaridan ham ishlanganligi, muhimi bunday yangicha uslubiy izlanishlar jarayonida milliy o'zanlardan uzoqlashmaslik yozuvchi dunyoqarashi va badiiy niyatining teranligidan dalolat beradi. Qissa qahramoni elchi bovaning tilidan aytilgan haqiqatlar

¹ Бўтаев Ш. *Бир кунлик меҳмон* // Кўчада қолган овоз. – Тошкент: Маънавият, 2005.

bir tomondan milliy, islomiy asoslarga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z tabiatiga ko'ra «Shamol o'yini» qissasidagi momolar nutqidan tarixiy asosining baquvvatligi, qat'iyligi, chuqur ma'naviy tayanchga egaligi bilan farq qiladi. O'quvchiga Sharq erkagi, asl erk ishining fikri bo'lib ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga bovaning «Zulmatiyning rohat-farog'atiyam, aysh-ishratiyam, hayotiyam, maqsadiyam zulmat. Ana shunda u supaga abad ul-abad qaytib chiqolmaysan», — degan xulosasi orqali asar syujeti umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Zotan, o'quvchi bunday salmoqdor nutq vositasida navoiylar, boburlar, furqatlar, qodiriylar targ'ib etgan asl haqiqatlar totini tuygandek bo'ladi.

«Eski arava» qissasining ko'pgina o'rinlarida Sh. Bo'tayevning N.V. Gogol an'alaridan ta'sirlangani seziladi. Gogolshunoslar yozuvchining ismlarga jiddiy e'tibor berganlarini ta'kidlaydilar. Jumladan, Yu.V. Mann «Poetika Gogolya» kitobida personajlar ism va familiyalaridagi g'ayri tabiiylik to'g'risida yozar ekan, bu jihatga V. Veresaev «Gogol qanday ishlagan? (Kak rabotal Gogol)»¹ kitobida alohida e'tibor berganini aytib o'tadi. Shunga ko'ra N.V. Gogolning Yaichnitsa, Zemlyanika, Karobochka, Petux, Skvoznik-Dmuxanovskiy, Dobchinskiy va Bobchinskiy, Probka va boshqa qator qahramonlarining ism-familiyalarini keltirib o'tadi. Sh. Bo'tayev qahramonlariga ism tanlashda shunday uslubga izchil rioya qiladi. Chunki adib qahramonlarining ism-familiyalari odatdagi o'zbekcha ismlardan keskin farq qiladi: Berkinboy, Baraka, Yoshiuzoq, Nishonboy Hurzamonovich, Yoribek, Simxoboyev, Nazoratchi, Mels, Toshquvat, Nisoacha, Abdusamatlakot, Karomatyallachi va h.k. Ta'kidlash joizki, asar davomida qahramonlarning birontasi o'z ismiga «xijonat» qilmaydi. Ismi ma'nosidan og'ishmagan holda harakat qiladi, goh yumoristik, goh satirik, goh real ma'no tashiydi. Masalan, Berkinboy yovuzlik timsoli o'laroq har doim odamlarning ko'ziga «yaxshi odam» bo'lib ko'rinadi. Yovuzlikning tabiati ham aslida shunday. U o'z sohiblariga faqat yaxshilik bo'lib ko'rinadi. O'zining asl basharasini berkitadi, bu jumlagi hayotdagi berkin boylar ham kiradi. Yoki Yoshiuzoqni olaylik.

¹ *Bu haqda qarang: Mann Ю. Поэтика Гоголя. — Москва: Художественная литература. 1988.*

Fahsh, poraxo'rlik, yovuzlik, o'g'ri-muttahamlikning yoshi nafaqat uzoq, balki abadiy bo'ladi. Insoniyat bor ekan, yer yuzida odam avlodi yashar ekan, bundaylar o'lmaydi. Asardagi Baraka ismida esa biroz kinoya bor. U Berkinboyning zurriyodi sifatida uning yovuzliklarini davom ettiradi, urchitadi. Ko'payish, urchish o'zbek tilida barakaning sinonimi hisoblanadi. Mana shunday badiiy onomastika qoidalariga muvofiq qo'yilgan ismlar qissa syujetining ko'laminini hoyat darajada kengayishiga xizmat qiladi. Asar yaxlitligi, uslub rang-barangligi, soddaligi va xalqchillini ta'minlaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Syujet turlari va ularning o'ziga xos shakllari haqida gapiring.
2. Syujet ko'lami deganda nimani tushunasiz?
3. Shoyim Bo'tayev ifoda uslubida badiiy syujetning qaysi turlari ko'zga tashlanadi?
4. Yozuvchining badiiy tildan foydalanish mahorati haqida so'zlang.
5. Ijodkor tanlagan ismlar tasodifiy qo'yilganmi?

Testlar:

1. Sh. Bo'tayevning qaysi qissasi tarkibida «Momouloq» rivoyati keltirilgan?

- A. *«Shamol o'yini». C. «Muyulishdagi uy».
B. «Eski arava». D. «Shohona sovg'a».

2. Bir asarda qatnashuvchi obrazlarni toping.

- A. * Berkinboy, Baraka. C. Yoribek, Nisoacha.
B. Yoshiuzoq, Nishonboy Hurzamonovich. D. Nazoratchi, Karomat.

3. Sobiq tuzum fojialari aks etgan asarlarni ko'rsating.

- A. *«Shohona sovg'a», «Sho'rodan qolgan odamlar».
B. «Muyulishdagi uy», «Eski arava».
C. «Ko'chada qolgan ovoq», «Shox».
D. «Sho'rodan qolgan odamlar», «Qora Klit».

4. XX asrning 80-yillari tipik sharoiti tasvirlangan qissani toping.

- A. *«Eski arava». C. «Kayvonining mangu makoni».
B. «Shamol o'yini». D. «Shohona sovg'a».

5. Zamzamto'ra obrazi tasvirlangan asarni toping.

- A. *«Eski arava». C. «G'animlar».
B. «Belbog'». D. «Paxmoq».

Adabiyotlar:

1. *Бўтаев Ш.* Кўчада қолган овоз. – Тошкент: Маънавият, 2005.
2. *Бўтаев Ш.* Ҳаёт: қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2000.
3. *Имомова Г.* Миллийлик ва бадий нутқ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
4. *Карим Б.* Моҳиятнинг намоён бўлиши // Мустақиллик даври адабиёти – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006.
5. *Рустамов А.* Сўз хусусида сўз. – Тошкент: EXTREMUM PRESS, 2010.
6. *Расулов А.* Таваллуд топаётган кўнгил муждалари // Ш. Бўтаев. Ҳаёт (китобга сўнги сўз). – Тошкент: Шарқ, 2000.
7. *Саримсоқов Б.* Бадийлик асослари ва мезонлари, – Тошкент: 2004.
8. *Шермуродов Т.* Жозиб изҳор излаб. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
9. *Қодиров П.* Ғоя ва туйғу бирлиги // Тил ва эл. – Тошкент: Маънавият, 2010.
10. *Қўчқорова М.* Бадий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011.

YANGILANGAN USLUB IMKONIYATLARI

◆ Reja:

1. *Hozirgi qissalardagi an'anaviylik va yangilanishlar.*
2. *Jahon realistik uslubi an'alarining namoyon bo'lishi.*
3. *«Urush odamlari» qissasida urush davri fojialarining badiiy tasviri.*
4. *Yozuvchi asarlarida milliy qadriyatlarning badiiy talqini.*

Tayanch so'z va iboralar: *adabiy an'alar, mozaika uslub, manera, qadriyat, ruhiyat, rivoyat, konflikt.*

Adabiy jarayon tarixida bir yozuvchining bir nechta uslub shakllaridan foydalangan holatlari uchrab turadi. Hatto har bir mustaqil asarning, u bir janrga mansub bo'lishidan qat'i nazar, uslubi o'rtasida ham sezilarli farq bo'ladi. Bir yozuvchi hayotining turli davrlarida yozilgan asarlarida ham uslub o'zgachaligi namoyon bo'lishi mumkin. Ammo biz quyida N.Eshonqul qissalari misolida o'rganayotgan hodisa bularning barchasidan farq qiladi. Chunki bu asarlarda biz bir yozuvchi misolida jahon nasrida o'zining o'tmishi va ma'lum an'alariga ega bo'lgan realistik va modernistik uslubning mustaqil holatda voqe' bo'lganini ko'ramiz.

Ma'lumki, Nazar Eshonqul adabiyot maydoniga an'anaviy uslubda yozilgan «Urush odamlari» qissasi bilan kirib keldi. Adibning bu qissasi mohiyatida inson tabiatidagi ruhiy kechinmalar juda bilimdonlik bilan, aynan ulkan adib nazari bilan badiiy tahlil qilinadi. Nazar Eshonqulning o'z tasvir manerasiga, murakkab tabiatli qahramonlar yarata olish qobiliyatiga egaligi ana shu dastlabki qissasida ham yaqqol seziladi. Asarni tushunish, uning tag zaminiga yashiringan ma'nolarni anglash uchun, asar ruhiga kirish, voqelikni butun murakkabligi bilan his qilish kitobxondan faol sezishni talab qiladi.

Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasida tinchlik qadriga yetish, tinch-totuv yashash, hayotni sevish, umrning bir zumda o'tib ketishi va boshqa insonning hayot-mamotiga taalluqli masalalar

xususida ochiq-yalang'och xitoblar yo'q. Ammo qissaning o'ziga xos uslubi mohiyatiga singdirilgan Boyxun bobo nomi bilan bog'liq bir rivoyat borki, u aynan yozuvchining badiiy maqsadi mohiyatini aks ettiradi.

«Urush odamlari» qissasida XX asarning 40-yillarida bo'lib o'tgan, juda ko'plab insonlarning yostig'ini quritgan ikkinchi jahon urushi haqida gap ketsa ham, asar tag matnida umuman urushning inson ruhiyatiga ta'siri, jamiyatda qoldirgan salbiy illatlari yotadi.

Nazar Eshonqul tasvir bayoniga kirishar ekan, asar qahramoni Anzirat tilidan «... u daryoning ikki betidagi ikki xil hayotni his qilar, biri ter to'kib yig'ar, ikkinchisi talab ketar – nazarida, narigi qirg'oq baxtsizlik keltiradigan qirg'oq edi»¹, – degan so'zlarni keltiradi.

Keltirilgan ramzlar ortiga razm solsak, daryo – bu inson umri, tiriklik belgisi. Insonda hamisha ikki his o'rtasida kurash ketadi. Biri ezgulik, ikkinchisi yovuzlik. Ikkisiga ham tiriklik belgisi daxldor. Ikkisida ham hayot bor. Umri davomida inson goh u «qirg'oq»qa, goh bu «qirg'oq»qa o'zini tashlaydi. Ikkisida ham hayot lazzati bor. Faqat ulardan bittasigina manguilikka daxldor. U osonlikcha qo'lga kiritilmaydi. Inson esa tabiatan osoniga moyilroq. Ezgulikning yovuzlik ustidan hamisha g'alaba qilishi faqat ertaklardagina uchraydi.

Yozuvchi insonni ana shunday ikki «qirg'oq» orasida imtihon qiladi. Uning ichida kechayotgan tartibli, tartibsiz xayollarni ochib tashlaydi. O'quvchini ajdodlar zamoniga sayohat qildiradi. Boyxun bobo tilidan: «Agar urushsiz yurtni topmasalaring, unda aka ukaga, do'st do'stga, xotin erga, odamlar bir-biriga xiyonat qiladigan, bir-birini aldaydigan bo'lib qoladilar, qayerda qon oqsa, o'sha yerda xiyonat ko'p sodir bo'ladi, baxt u yerdan yuz o'giradi, odamlar yashash ilmini emas, bir-birini o'ldirish ilmini o'rgana boshlaydilar, suv o'rniga qon ichadigan maxluqqa aylanadilar, Urush – yer yuzidagi hamma ezgu narsani quritadi, sizlarni yer yuzidan supurib tashlaydi. Sizlar hammalaring johil va adashgan urush odamlariga aylanib qolasizlar»², – degan ulkan bir falsafani ilgari suradi. Bu

¹ Эшонқул Н. Уруш одамлари // Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinadi va sahifasi ko'rsatiladi, - D.X.)

² Эшонқул Н. Уруш одамлари // Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinadi va beti qavs ichida beriladi - D.X.)

iqtibosda, bizningcha, qissaning asosiy mazmuni jo qilingan. Qissa voqealari to'rt muchasi sog' Normat polvonning urushdan nogiron bo'lib, «urushning tirik guvohi»ga aylanib uyga qaytishi bilan boshlanadi. O'quvchi bevosita asar ruhiga singishib, yozuvchi mahorati sabab o'sha odamlar davrasida o'tirganday his qiladi. Chunki, «qayg'urishayotganini bildirish uchun yuzlarini burishtirib, qoshlarini yozib, yoqalarini ushlab, yana qo'yib yuborib, lablarining bir chetidan «cho'lp» etib tovush chiqarib, hayratlangan bo'lishar» (5-bet), kabi lavhalarda asar voqeasi tasvirlanayotgan muhit karakterini turli tomondan ko'rish imkonini beradi. Bu o'rinda asarning yetakchi qahramonlaridan biri Normatni gohi go'yo obyektiv vazifasini o'taydi. To'g'rirog'i N.Eshonqul bir qarashda sodda, ammo mohiyatida o'ta murakkab holatni — urush davri qishloq kishilarining psixologiyasini, hissiyotlari, botiniy va zohiriy olamlarini Normatni gohidan o'tkazib tasvirlaydi.

Normatpolvon urushdan omon qaytganiga shukronalar keltirib, qolgan umrini xotiniga, bolalariga, shu odamlarga yaxshilik qilib o'tkazishni niyat qiladi. Xotini Anziratning nozlanib, kaklik go'shtini yegisi kelganini eshitgandan so'ng: «...bu narsalarni hech narsaga almashmayman» (21-bet) — degan qat'iy qarorga keladi. Biroq to'rt yillik urushning kichkina bir qishloq hayotiga yetkazgan zaharzaqqumlari, iztiroblari, ularni his qilish azobi hali oldinda edi. Asarning badiiy maqsadi asta-sekinlik bilan ochila boradi. Voqealarni bunday yashirin tarzda berilishi yozuvchi tomonidan qo'llangan asarning tuguni bo'lib, keyingi holatlar shu tugunni yechishdagi voqealar bilan bog'lanib ketadi. Yozuvchi bo'lib o'tgan voqealardan qahramonni xabardor qilish uchun mayda detallargacha ahamiyat beradi. Normatpolvonning xotini Anziratning ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlar, ovqatlanishdagi o'zini tutishi, qilib qo'ygan aybini oqlashga intilishlari, Normatning cho'loqligi yu, o'zining shu holatda unga mos emasligini xayolidan o'tkazishigacha barcha-barchasi qalamga olinadi, psixologik tasvir etiladi. Matnda uzilish hollari, o'quvchini ishontirmaydigan tasvirlar kuzatilmaydi.

Nihoyat, Normatpolvon manfur xiyonatdan xabar topadi. Qahramonning ichki olamida kechayotgan og'riqli-azobli, ziddiyatli fikrlarning g'ujg'on o'ynashi kitobxonni ham o'ziga sherik qiladi.

Nega shunday bo'ldi? — degan haqli savol o'quvchini ham, qahramonni ham birday qiynaydi. Normat ikki o't orasida iztirob chekadi. Biri to'rt yillik urush dahshatlari, undan omon qolish, oilasi bag'riga tezroq qaytish bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xotining xiyonati, o'zi tirik bo'la turib, farzandlarining yetim bo'lib qolayotganligi azob beradi. U «Meni, avvalo, urushga bor, deb aldashgan, keyin urushda aldashgan, xotinini yo'ldan urish uchun uni urushga yuborishgan — urushda ishlarini bitkazish uchun aldashgan, uni hamma aldagan, ko'rgan har bir kishi aldagan, kelgan birinchi kunlariyoq aldashgan, yo'llarda aldashgan, gospitalda aldashgan, uni mana shu mash'um voqeani ko'rsatish uchun uyiga qaytarishgan, so'ng ustidan kulib yurishgan, uni hamisha aldab kelishgan...» (74-bet), — degan xulosalarga keladi. Bu nafaqat Normat uchun, balki har qanday inson uchun fojiali xulosa. Odam dunyoda aldanib yashayotganini anglasa, uning uchun bu hayotning xaschalik qimmati qolmaydi. Bunday odam hamma narsadan bezadi, hamma narsaga, hatto o'ziga ham nafrat bilan qaray boshlaydi. Yozuvchi Normat yo'liqqan mana shunday murakkab fojiviy vaziyatni ochib berish uchun zahirasida bor barcha so'z va ibora, tasvir, detal, ishoralarni ishga soladi. Boshqa personajlar tilidan, xarakteridan unumli foydalanadi. Bu o'rinda eng katta vazifani Anzirat obraziga yuklaydi.

Adib urush odamlarining azob-uqubatlari, fojiasi, urush davri psixologiyasini yoritishda Anzirat ichki kechinmalarini shafqatsiz tarzda ochib tashlaydi. Ammo bu borada neytral yo'ldan boradi. Anziratning fojiasini bir yoqlama tasvirlashdan qochadi. Shu orqali inson qalbining o'ta murakkabligini o'quvchiga anglatadi. Anzirat gohida qilayotgan gunohlarini bolalarining hayotini saqlab qolish uchun qilyapman, deb o'ziga taskin ham beradi. Biroq bu tazarular, oqlashlarga o'zi ham chin dildan ishonavermaydi. Shuning uchun yozuvchi uning ichida kechayotgan, shuuridagi ikkinchi «men»ini ochishga harakat qiladi. U «... Mirzaqulning suyib erkalashini, soqoli olinmagan chakagi bilan bo'ynini qitiqlashini, uch yildan beri erkak hidini ko'rmagan sochlarini erkak qo'llari silashini... xullas, erkakni, erkakning dag'al qiliqlarini, ulardan keladigan yoqimli va ehtirosni qo'zg'aydigan hidni qo'msardi» (56-bet), — kabi tasvirlarda inson ruhiyatining qanchalik murak-

kabligi, inson hamisha o'z qilmishlarini oqlashga moyil ekanligini bildiradi. Biz ko'pincha badiiy qahramonlarni tahlil, talqin qilayotganda ularga qat'iy hukm chiqarishga odatlanib qolganmiz. Qaysi birinidir alqaymiz, boshqasini qoralaymiz. Biroq talqinchining maqsadi — hayot haqiqati to'g'ri aks ettirilganmi, badiiy estetik tamoyillar buzilmaganmi, o'quvchi bu hodisalarga ishonadimi, — kabi savollarga javob topishdan iborat. Shu nuqtai nazardan qaraganda xiyonat ko'chasiga kirib qolgan Anziratga rahmimiz keladi, unga achinib ketamiz. Hatto butun vujudini nahs bosgan Mirzaqulning ham Anziratni chin ko'ngildan yoqtirib qolishiga, «Anziratning yoshlik o'zlari, qatiq hidi keladigan nam sochlarini» (73-bet) sog'inishiga va iztirob chekishiga ishonamiz, unga inson sifatida achinamiz. Ularning qilg'iliklariga qanday hukm chiqarishga qiynalamiz.

Xiyonatga qanday hukm chiqarilishi mumkin? Albatta, har xil. Har kim o'z milliy o'zanlaridan kelib chiqib, hukm o'qiydi. Biz Mallavoy qismatini eshitgandan keyin Normatpolvondagi uyga qaytish fikrini nimagadir hazm qilolmaymiz. Lekin juda-juda xohlaymiz. Yozuvchi bu yerda ham o'z uslubiga sodiq qoladi. Ularning uchalasi ham o'lim topadi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Normatning tirik qolishi uning polvonlik sha'niga nomunosib bo'lardi. Chunki u ajdodlarining azaliy an'analariga qarshi bora olmasdi.

Umuman, o'zbek adabiyotida urush davridagi ayol xiyonati bilan bog'liq tasvirlar ko'plab uchraydi. Misol uchun O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanidagi Ra'no bilan Umar zakunchi, Ismoil Shomurodovning «Odamxo'r» romanidagi Rizvon bilan Mannop rais o'rtasidagi xiyonat Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasidagi Mirzaqul va Anzirat boshidan kechirgan voqealarga o'xshab ketadi. Bu esa urush davri real voqeligida bunday holatlar ham uchrab turganligini bildiradi.

Biroq Anzirat, Ra'no va Rizvon obrazlari orasiga tenglik alomati qo'yish ham to'g'ri bo'lmaydi. Ra'no, Rizvon xarakterlaridagi og'machilik, sabrsizlik ularni xiyonat ko'chasiga boshlaydi. Ular xiyonatga o'z xohishlari bilan qadam qo'yadi. Shuning uchun ularning keyingi pushaymonlari, fojiaga aylangan hayotlari o'quvchini u qadar larzaga solmaydi. Nazar Eshonqulning mahorati shundaki, u Anziratning xiyonat ko'chasiga kirib qolishini majburiylikdan

ekanligini, o'zi xohlamagan tarzda botqoqqa botish yo'llarini tabiiy ravishda tasvirlaydi. Yozuvchi Anzirat xiyonati orqali urushning insonlar hayotiga solgan bor manzarasini ko'rsatishga erishadi.

Qissadagi Biydimomo obrazi milliy g'urur timsoli, ayollarimizning sadoqat va vafo ramzidir. U har bir harakatidan o'z urug'ining himoyachisi, sha'nining qo'riqchisi sifatida namoyon bo'ladi. Momona faqat gapda, balki yurish-turishda ham ibrat ko'rsatadi. Chuqurroq razm solinsa, Biydimomo Anziratning taqdiriga achingan kitobxonga ogohlik tarzida kiritilganday taassurot uyg'otadi. Inson bolalari har qanday vaziyatda, har qanday sharoitda o'z sha'nini yo'qotmasligi, daryoning qaysi qirg'og'ida muqim qolish odamning o'ziga bog'liqligini ta'kidlayotganday bo'ladi. Biydimomo ham yoshligida beva qolib, ikki bolasini o'zi katta qilgan. Og'ir mehnat bilan belib ukilgan. Ammo Biydimomo birovlariga sir bermaydi. «Hech kim uning nima uchun bunchalik jonini jabborga berib, kuyib-pishayotganini bilmasdi. Qo'lini so'rab kelgan sovchilarni bir xil javob bilan qaytarardi: «Meni erim taloq qilmagan, hali ham uning nikohida man» (33-bet). Biydimomo hayot murakkabliklarini, yosh beva ayolning ehtiroslarini, iztiroblarini faqat qattiq mehnat bilan yengadi, shu bilan o'zini ovutadi. Chunki qissa navisning «Anglashilgan va sodir bo'lgan gunoh ikkinchi gunohning ostonasidir» (56-bet), — degan haqiqatlari hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Anzirat esa hayot murakkabliklari oldida o'zini tutolmaydi, natijada hayoti fojiali yakun topadi.

Umuman, qissa har qanday murakkab vaziyatda ham inson o'zligini, o'z g'ururi va qadrini toptalishlardan asrab qolishi, sabrsizlik va shaytoniy qirg'oqqa o'tish inson boshiga cheksiz kulfatlar keltirishi haqidagi ulkan haqiqatni badiiy jihatdan asoslaydi. Qissaning ma'naviy-estetik qimmatini ham shunda.

N. Eshonqulning «Momo qo'shiq»¹ qissasi ham milliy o'zlik, milliy qadriyatlarni saqlash yo'lidagi murakkab konfliktlar, ichki iztiroblar tasviri asosiga qurilgan. Asarning qisqacha syujeti quyidagicha: shahardan bir guruh madaniyat xodimlari uzoq bir qishloqqa paxta yig'im-terimi uchun hasharga borishadi. Shu paxtazor chekkasiga

¹ Эшонқул Н. Момоқушиқ // Ялпиз ҳиди. — Тошкент: Шарқ, 2008. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinadi va sahifasi ko'rsatiladi, — D.X.)

tiklangan qamish chaylada yashab, kun kechirayotgan, ammo noyob ovoz egasi Muazzamni uchratib qolishadi. Yozuvchi Shamsi Saloh bu ayolni shaharga olib borib, ovozin tarbiyalashni maslahat beradi. Muazzam va uning eri Otaqul, tabiiyki, bir muhitga — qishloqqa va uning keng dalalariga o'rgangan odamlar. Ular hayot mazmunini ona tuprog'isiz tasavvur qila olmaydi. Qishloqqa bog'lanib qolishni Shamsi Saloh madaniyatsizlik sanaydi. Oxir-oqibat, Shamsi Salohning yengil-yelpi, oliftanamo qarashlaridan Muazzam bilan Otaqulning sodda va samimiy tuyg'ulari ustun keladi.

Asarning bosh qahramoni Moskvada ta'lim olgan, uchta kitob chiqarib, o'quvchilar orasida «yozuvchi» bo'lib tanilgan, Yevropacha madaniyatni juda yaxshi o'zlashtirgan, «hayotni yanayam yaqindan o'rganish» maqsadida hasharchilarga qo'shib paxta dalalariga kelgan Shamsi Salohdir. U shu yurt farzandi sifatida xalq hayotini o'rganishni, asarlarida tasvirlashni chin ko'ngildan xohlaydi. Biroq uning qalbiga tabiat, paxta dalalari, u yerdagi dehqonlar hayot tarzi zarracha ilhom bermaydi. U «...ichida bu manzaraga nisbatan hech qanday his uyg'onmaganiga, nimadir toshday bo'lib bo'g'ziga tiqilib turganiga, yuragi birdan bu narsalar o'ziga aloqasi yo'qday «uxlab qolganiga» (117-bet) hayron qoladi. Chunki milliylik tuyg'usi, millat qayg'usi qadriyatlarni ich-ichdan anglashni, tuproq, havo, suvning taftini sezishni talab etadigan omildir. Bunday hissiyotlardan mahrum bo'lgan inson qalbi toshga aylanadi, ko'ngilda nafs qutqusi bosh ko'taradi. Qadriyatlarni to'la idrok qilish uchun avvalo o'sha tuyg'u milliylik mezonidan batamom to'yingan bo'lishi kerak. Shamsi Saloh va uning atrofidagi ziyolilar ruhida kechayotgan sovuqlik, beparvolik, bepisandlikni yozuvchi «o'zlik»dan uzoqlashganlikda «begonalik»da ko'radi. Qissa ichidagi hayot kontrast ikki tomonga ajraladi. Biri yer odamlari, el odamlari, ikkinchi toifasi o'z tuprog'iga o'zi begona, ammo o'zgalar madaniyatini chuqur o'rganib olgan, milliy madaniyatdan uzoqlashgan odamlardir.

Yozuvchining maqsadi ham, shu toifa insonlar xarakterini ko'rsatish edi. Adibning «Qora kitob» qissasidagi muallimning musavvir va musiqachi o'g'illari xarakterida ham shu kabi zamindan uzilish holatlarini kuzatish mumkin. Sh.Bo'tayevning «Sho'rodan qolgan odamlar» qissasining markaziy obrazlaridan biri nazoratchi

ham aynan o'zligidan, o'z milliy ildizlaridan uzilgan kimsadir. Nazar Eshonqulning mahorati shundaki, «Momo qo'shiq»da o'z elida o'zini begona sanaydigan kimsalarga ta'sir etadigan muhim bir vositani, ya'ni «qo'shiq» detalini asarga kiritadi, butun syujet voqeligini shu asosga quradi. Shamsi Salohni keng maydonga bog'lab turadigan «qo'shiq» qissada asosiy motivga aylanadi. Aslida har qanday insonni ham ona allasi, go'dakligida qulog'iga aytilgan azon, ota-onaning mehrga to'la erkalashlari, birinchi talaffuz qilingan kalom xushyor torttiradi. Bularning barchasi goh-gohida o'zlikka qaytishga, xira tortgan ko'ngillarda isyon qilib, o'z mavjudligini bildirishga erishadi. Asarda o'zlarini madaniyatli va ziyoli deb hisoblovchi kishilar milliylikning bosh mezoni hisoblanuvchi qo'shiq oldida «tong qotib» qolishadi. «Qo'shiq xayolni tortqilab-tortqilab olis-olislarga, xayolot, orzu, samimiyat va mo'jizalar gullab yotgan bolalik adirlari tomon olib qochardi. U xasis dunyoning qo'ynidan bu go'zal ohanglarni parcha-parcha qilib qo'porib olayotganday va jarohatlar bijg'ib yotgan qablarga malham qilib bosayotganda yedi» (121-bet).

Tasvirda keltirilgan «bolalik adirlari» jumlasiga ham juda chuqur ma'no yuklangan. Har qanday ruh, g'urur va tarbiyaning debochasi yoshlikdan boshlanadi. «Bolalik adirlari» ulkan tog'lar kabi haybatli va ko'z ilg'amasdir. Yoshlikda singdirilgan va qon bilan kiritilgan qadriyatlar qatag'onlarga uchrashidan qat'i nazar buloqday ko'z ochaveradi. Inson unga talpinaveradi. Ana shu tuyg'udan mahrum bo'lish ko'ngildagi bo'shliqni kattalashtiradi, hissizlikni kuchaytiradi. Shuning uchun «...ota-bobolardan meros qolgan, quvg'in qilingan, qatl etilgan, yoqib yuborilgan, lekin oxir oqibatda zulmlardan, qatlardan yana tirilavergan, yana ham go'zallashgan... qo'shiq» (121-bet), turli siyosatlar, g'oyalar natijasida ko'ngillarida befarqlik paydo bo'lgan «to'rtta hasharchi»ni hayratga soladi. Aslida yozuvchi qo'llagan «hasharchi» so'zi ham ramziy bir ma'noni o'z zimmasiga oladi. Asl odamlar va hasharchilar, milliy o'zligini anglagan va o'zlikdan uzoqlashganlar. Nazar Eshonqul uslubining eng muhim qirralaridan biri ham shuki, u so'zlarga diqqat qaratadi, hatto ismlarga ma'no yuklaydi. Shamsi Saloh — ancha baland parvoz taxallus. Muazzam ismida lug'aviy ma'noga munosib bo'lgan

ulug'vorlik mujassam. Otaqul ismini ham yozuvchi bejizga tanlamagan. Otaqul tabiatida or-nomus, o'jarlik, g'urur aralash biroz «qullik» ham seziladi.

Adib voqealar bayoniga kirishar ekan, go'yo nasriy bayon usulidan chekinib, nazmiy tasavvurga erk bergandek taassurot qoldiradi. O'quvchi tasvirni o'qimaydi, balki qo'shiq tinglayotganday, o'zi ham shu kuyga maftun bo'lib, jo'r bo'layotganday sezadi. Xayollar asrlar qa'riga boshlaydi, makon va zamon deb atalmish falsafiy qarashlar xayolot olamida parchalanadi. «...O, sen momo qo'shiq! Qalbimning muqaddas qo'shig'i. ...O, o'lmas qo'shiq, kemasi! Suz, suzaver! Ul olis diyorlardan menga tomon suzib kel, mening yuragimga langar tashla! Men seni asrlar, yillar osha kutdim. Ul momo yurtlardan meni izlab kelishingni bilardim» (122-bet).

Qahramon ruhiyatida kechayotgan ichki ziddiyatlar tabiat tasviri bilan uyg'unlashadi. O'zligiga qaytishga urinayotgan ko'ngil nolalari «qandaydir dard va og'riq bilan to'lg'onib yotgan bu zaminni tinglagisi» keladi. Asardagi Muazzam — milliy qadriyatlarni o'zida to'la jamuljam etgan obrazdir. U o'ta sodda, mehnatkash, oila sha'ni va bolalarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yadi. Shuning barobarida juda ishonuvchan. Soddaligidan Shamsi Salohning badnafslilik ortidan aytilgan havoyi gaplariga, cho'pchaklariga ishona boshlaydi. Lekin tezda Muazzamdagi muazzam tuyg'u, insoniy sadoqat va sobitlik hislari o'tkinchi xayollarni yengib chiqadi. Shamsi Salohning: «Bizning xalqimizning, anavi qishloqdoshlaringizning fojiasi shuki, ular baxt bilan baxtsizlikni farqlayolmaydi; ularning ko'zi ko'r, qulog'i kar; ular ojiz, mute, zaif odamlar»(155-bet), — degan gaplariga ayol kishi uchun oila, farzand, er oldidagi mas'uliyat birlamchi ekanligini aytadi. «Sizga bir narsani farqiga bormaydigan, farosatsiz bo'lib ko'ringan erim hech qachon, men mayib bo'lib qolsam ham tashlab ketmaydi. Ayol kishi uchun shuning o'zi baxt emasmi?! ... Mening ildizim shu yerda, shu odamlar orasida. Men boshqa joyda ko'karmayman» (157-bet), — deb, sodda, lekin mantiqli javob qaytaradi.

Yozuvchining asl g'oyaviy maqsadi ana shunday epizodlarda ochila boradi. Muazzam xarakterining eng muhim qirralaridan birini yorqin ifoda qiladi. Aslida: «Yozuvchi tanlagan har bir epizod,

har bir voqea, uning katta va kichikligidan qat'i nazar, shu voqeada bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan xarakterning bir tomonini ochib berishga xizmat qilishi kerak»¹.

Ijodkor uchun Muazzam bir vosita. U. Muazzam (so'zning turdosh ot sifatidagi ma'nosiga yana bir bor e'tibor bering, — D.X.) orqali milliy qadriyatlarni ko'radi. Uni poymol qilmay asrab qolganidan shodlanadi. Uni zabun qilmoqchi bo'lgan, o'zga o'zanlarga burmoqni istagan Shamsi Salohning ustiga qarq'aning «najas»i tushganligidan sevinadi. Qarq'aning Shamsi Salohga qarata «Xo'sh, qalaysan, og'ayni?» (159-bet), — deyishi, go'yo muallif qalbidan chiqayotgan shodlik hayqirig'idek tuyuladi.

«Momo qo'shiq»da ko'tarilgan muammolar bir qarashda jo'ndek tuyulsa-da, aslida xalqning xalq bo'lishi, ajdodlardan davom etib kelayotgan qadriyatlarining yo'qolishi, inqirozga yuz burishi mana shunday oddiylikdan boshlanishini uqtiruvchi ogohlik belgisidir. «Momo qo'shiq»da fazilatlar ko'p. Eng muhimi yozuvchining estetik ideali yuksalib borish yo'lidagi, o'ziga xos falsafiy uslubining mukammallashish jarayonidagi bir bosqich hamdir.

Savol va topshiriqlar:

1. *Bir badiiy asar tarkibida bir necha uslub shakllari qorishiq kelishini qanday tushunasiz?*
2. *N. Eshonqul qissalari uslubiga xos an'anaviy holatlar haqida so'zlang.*
3. *Asardagi Boyxunbobo qanday badiiy konsepsiyani bajargan?*
4. *O'zbek adabiyotida urush davridagi ayol psixologiyasi, shuningdek, ayol xiyonati bilan bog'liq qaysi asarlarni bilasiz?*
5. *«Momo qo'shiq» qissasida nega yozuvchi aynan «qo'shiq» detalini tanlagan?*
6. *«Momo qo'shiq» qissasidagi konfliktlar haqida so'zlang.*

Testlar:

1. «Mening ildizim shu yerda, shu odamlar orasida. Men boshqa joyda ko'karmayman». Parcha qaysi asardan olingan?

A. *«Momo qo'shiq».

C. «Tobut».

B. «Qora kitob».

D. «Ajr».

¹ Адабиёт назарияси. Икки томлик. 1-том. — Тошкент: Фан, 1978.

2. *An'anaviy realistik uslubda yozilgan asarni toping.*

- A. *«Momo qo'shiq». C. «Qora kitob».
B. «Tun panjaralari». D. «Tobut».

3. *Boyxunbobo rivoyati keltirilgan qissani belgilang.*

- A. *«Urush odamlari». C. «Shohona sovg'a».
B. «Momo qo'shiq». D. «Qora kitob».

4. *«Bizning xalqimizning, anavi qishloqdoshlaringizning fojiasi shuki, ular baxt bilan baxtsizlikni farqlay olmaydi; ularning ko'zi ko'r, qulog'i kar; ular ojiz, mute, zaif odamlar». Parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?*

- A. *Shamsi Saloh. C. Baraka.
B. Otaqul. D. Biydi momo.

5. *«Meni erim taloq qilmagan, hali ham uning nikohidaman». Qaysi qahramon nutqidan olingan?*

- A. *Biydi momo. C. Muazzam.
B. Bayna momo. D. Anzirat.

Adabiyotlar:

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978.
2. *Дустмуҳаммад Х.* Назарнинг умидбахш кемалари // Ижод – кўнгил мунавварлиги. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2011.
3. *Жўраев Т.* Онг оқими модерн. – Фарғона, 2009.
4. *Каримов Б.* Руҳият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
5. *Норматов У.* Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000.
6. *Носиров Ё.* Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Тошкент: ЎзР ФА Фан нашриёти. 1981.
7. *Эшонқул Н.* Мендан «мен»гача. – Тошкент: Akadem nashr, 2014.
8. *Эшонқул Н.* Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008.

MODERN USLUB TAMOYILLARI

◆ Reja:

1. *Adabiy aloqalar ta'siri.*
2. *Tavba-tazarruning badiiy talqini.*
3. *Davr va shaxs fojiasining badiiy tasviri.*
4. *Badiiy adabiyotda ranglar bilan bog'liq turli ramzlar, obraz va timsollarning ijodkor badiiy konsepsiyasini ifodalashdagi o'rni.*

Tayanch soʻz va iboralar: *irratsional, ong oqimi, botiniy shuur, modern uslub, zamon va makon irrealligi, ismsizlik, ko'p variantlilik.*

Jahon adabiyotining durdonalaridan boxabar bo'lish, voqelikni irratsional qabul qilish va talqin etish, ong oqimi, botiniy shuur o'zbek nasrida ham o'z ifodasini topdi. Zero, hech bir milliy adabiyot o'z qobig'ida, yolg'iz o'zining an'ana va muhitida taraqqiy etishi mumkin emas. Shu ma'noda, o'zbek adabiyotining 80–90-yillar avlodi nosirlari ijodida jahon adabiy maktablaridan saboq olish va yangilikka intilish jarayonlari yuzaga kela boshladi.

Har qanday adabiy hayotdagi yangilanish o'z-o'zidan, inqilobiy suratda paydo bo'lmaydi. Ayniqsa, nihoyatda murakkab, o'ziga yarasha ruhiy-psixologik jarayonlarda kechadigan badiiy ijodda originallikka erishish oson emas.

N. Eshonqulning «Qora kitob» qissasida voqea-hodisalar, histuyg'ular, falsafiy fikr-mulohazalar va ruhiy kechinmalar birinchi shaxs tilidan bayon qilinadi¹. «Qora kitob» — insonga abadul-abad hamroh bo'lgan va to qiyomatga qadar Odamni (Odam Atodan boshlangan) to'g'ri yo'ldan ozdirishga ont ichgan Shaytonning shaytoniy nayranglari haqida. «Qora kitob»da shayton qutqusini o'z hayotiga dasturulamal etib olgan va uni o'z farzandlari tarbiyasiga ham singdirgan, alal oqibat o'z xatosini ilg'ab yetgan kishining boshidan kechirganlari o'ziga xos original uslubda bayon etiladi.

¹ Эшонқул Н. Қора китоб // Ялпиз ҳиди. — Тошкент: Шарқ, 2008. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinadi va sahifasi ko'rsatiladi — D.X.).

Qissa mohiyat e'tibori bilan yetmish yoshga chiqib, o'zligini, o'z qilmishi va hayotidagi mavqeini anglab qolgan kishining tazarrusini eslatadi. Qahramon turmushning past-balandini, achchiq-chuchugini, yaxshi-yomonini ko'rgan inson sifatida qop-qora xulosalarga ham kelgan. Uningcha, «odamzotdan umid qiladigan narsaning hammasi o'lgan. Hammasi halok bo'lgan» (196-bet). Hamma narsa boy berilgan, barbod bo'lgan. «Endi buni hech narsa qutqara olmaydi. Na go'zallik, na ishonch, na ezgulik» (196-bet).

Farovon hayotga ishonch, ezgulik, yaxshilik va umidvorlik kabi tushunchalardan bir yo'lak sovgan qahramon insoniyatning bu-gungi holi, ruhi, turish-turmushi, atrof-muhitda yorug'likdan nishona yo'qligi, noloyiq tarbiya oqibatida xulqi yomon farzand-larning voyaga yetgani, ayniqsa, o'zi, o'zining qilmishlari va indi-vidual «men»i xususida tinimsiz fikrlaydi. U o'zining 42 yillik ongli faoliyati haqida mulohaza yuritib: «Men insonning ulug'ligi, ezgu va go'zal fazilatlarini, ota va farzand burchi, oila totuvligi, jamiyat va inson munosabatlari axloq va muhabbat haqida 42 yil ma'ruza o'qi-dim, endi o'ylasam, 42 yil odamlarni aldabman» (197-bet),— degan iqrorini keltiradi.

Uning ma'ruzalari dastlab, albatta, ko'tarinki kayfiyatda, juda ko'p talabalarni o'ziga rom etgan mazmunda bo'lgan. Ammo um-rining ma'lum bir davriga yetgach, hamma narsa sarobga aylanadi; yasha bo'tilgan umri ezgulikka daxldor hech narsani eslatmaydi. Go'zallik, komillik va ezgulik tushunchalarining o'rnini vahshiylik va yovuzlik bilan bog'liq qarashlar egallab oladi. Qahramon ich-ichidan shunday bir xulosaga keladi: «Inson yovuzlik ijodkori. Inson yovuzlikni ulug' san'at asari darajasiga ko'taruvchi birdan-bir jonzot... go'zal narsalarning hammasi halokatdir. Har qanday go'-zallik ortida vahshiylik yashiringan bo'ladi, go'zallik vahshiylikning yuvosh ko'rinishidir» (198-bet).

Biri-biriga mutanosib bo'lmagan tushunchalarning jamlanishi va biri-birining mantiqiy davomi sifatida berilishi, qahramonning favqulodda teran fikrlari uning ichki dunyosida kechayotgan jarayon ifodasi kitobxonni beixtiyor hushyor torttiradi. Bu g'aroyib insonda, o'z kasbini sevgan va maroqli ma'ruzalar o'qigan muallim-da, o'z qizini o'ldirib, qotilga aylangan otada bunday bir qarashda

pur hikmat bo‘lib ko‘ringan fikrlar qayerdan paydo bo‘ldi? Yet-mishga chiqqan har kishi shunday xulosalarga keladimi? Hamma ham hayoti poyoniga yetgach, o‘zining o‘tgan umriga shu tarzda tupiradimi? Bu barcha insonlarga xos xususiyatmi? Bunday savollar ustida jiddiy bosh qotirish lozim. Qissa odamni shunga undaydi. Agar asarning ichki qatlamlariga, ramzlar ortiga yashiringan ma’-nolarga jiddiy e’tibor berilsa, qaysidir darajada javoblar ham topiladi.

Inson g‘aroyib maxluqdir. Uning hayotida shunday vaziyatlar bo‘ladiki, u ma’lum bir qarashlar yig‘indisini o‘z turmush tarzi uchun dastur qilib oladi; uni eng to‘g‘ri va o‘zgarmas haqiqat o‘rnida qabul etadi. Ojiz fikrli inson qalami bilan yozilgan «Qora kitob»larga maftun bo‘lgan kishining umri, hayoti, boringki, um-rining oxiri pushaymonlikdir. Pushaymonlik, afsus-nadomat, tavba-tazarru harvaqt nisbatan yuksakroq, oliyroq qadriyat qar-shisida tug‘iladi; qandaydir haqiqatni teranroq anglash, umr maz-munini (yoki mazmunsizligini) his etish oqibatida yuzaga keladi.

«Qora kitob» asaridagi roviy — qissa go‘yo o‘z umr daftarini varaqlay turib: «Men ulug‘ gunohkorman, Taqsir», — deydi (200-bet). Muallif bunday mulohazalarni ochish uchun qahramonning tarixiga ekskurs qiladi. «Yoshlikda bir kitob o‘qiganman, keyin umr bo‘yi shu kitobning ta’sirida yashadim. Bu kitob umrimni boshqardi. U men uchun muqaddas kitob bo‘lib qoldi. Fojialarning boshi ana shu kitobda... Hayotda nimaniki yaratgan bo‘lsam, shu kitob ta’sirida yaratdim. Shu kitob hukmida hukm qildim. Bolalarimni ham shu kitob bilan tarbiya qildim, ularning ham qalbiga singdirdim bu kitobni, so‘zma-so‘z, satrma-satr yod oldirdim. Umrimni kitob qo‘liga xuddi tovada kuydirilgan piyozdek qovurib berdim» (200-bet).

Bu kitob yoshlik ko‘chasida unga ro‘baro‘ kelgan cho‘qqisoqol — Iblisning shaytoniy kitobi edi. Zotan, Cho‘qqisoqol unga daho bo‘lib ko‘ringan, uning ovozi, so‘zlash va yashash tarziga yigit maftun bo‘lgan. Shu kitob uning umr mazmuniga aylangan, shu kitob uni oxir-oqibat rasvo qilgan. Har qanday voqea-hodisaga shu kitob mezoni bilan yondashgan. Qissago‘y bir o‘rinda: «Taqsir, men o‘qigan va umrimni baxshida qilgan insoniyat tarixi ojiz va kuchlilarga, xo‘rlashga loyiq va xo‘rlanishga loyiqqlarga, ezuvchi va eziluvchilarga, qullar va xojalarga, qo‘y va bo‘rilarga bo‘linadi»

(208-bet), — degan fikrni aytadiki, jamiyat tarixini bu tarzda tasniflash yaqin o'tmishda aynan mustabid sho'ro zamonlarida yuz berganligi beixtiyor xayolga keladi. Muallifning yaqin kechmish odami ekani sezilib turadi. Qolaversa, qissa qahramonining yoshi ham (70 yosh — D.X.) bizga nimalarnidir ishora qiladi. N. Eshonqul o'z uslubiga ko'ra ma'lum bir makon nomiga ataylab urg'u bermaydi. Qissadagi zamon shakli bir paytning o'zida ham tor (bir inson misolida), ham keng (bu tun bashariyat miqyosida) tuyuladi. Asarda voqealar oddiydan murakkabga, birlikdan ko'plikka tomon rivojlanib boradi. Bu jihat tasvir ko'lamini, uslubning murakkablashuvida namoyon bo'la boradi. «Qora kitob»ning qamrovi cheksizlik sari ketadi. Asar qahramoni o'y-xayolidagi har qanday falsafa va hodisa asar mohiyatiga singdirib yuboriladi, aniqrog'i, roviyning qissasi muallifning badiiy tafakkuri quvvati bilan boyiydi, rang-barang tusda tovlanadi.

Aslida «Qora kitob»dagi tasvir, roviyning iztiroblari Nazar Eshonqulga begona emasligi aniq. Chunki har qanday badiiy kashfiyotda ijodkorning ruhiyatida kechayotgan sezimlari qaysidir darajada o'z aksini topgan bo'ladi. Biroq uslubga ko'ra badiiy asar birinchi shaxs tilidan bayon qilinganda muallif, roviy va qahramon muammosi paydo bo'lishi mumkin. Bunda ba'zan muallifning asl estetik olamini, asl maqsad-g'oyasini anglash ham nisbatan mushkullashadi. O'quvchi roviyning har qanday fikrini, hukmi yoki xulosasini to'g'ridan-to'g'ri muallif ustiga yuklab qo'ysa, muallif qarashi tarzida tahlil etsa, adashgan bo'ladi. Chunki chinakam iqtidorga ega bo'lgan adib voqea-hodisalarni o'zi o'ylaganidek emas, balki qanday bo'lishi kerak tarzida tasvirleydi. Chunki ijodkor ham mustaqil tafakkurga ega bo'lgan inson sifatida, voqealikni hissiy sezim orqali ko'radi va tasvir jarayonida hissiy mushohadasini chegaralab turolmaydi.

Insoniyatni ezgulik sari yetaklamoqchi bo'lgan eng xolis harakatda ham, inson qalbiga ezgulik va yaxshilik urug'ini ekishga intilgan har qanday harakatda ham shon-shuhrat xudbinligi bo'lishi mumkin. Xudbinlik, doimo birinchi bo'lishga intilish — bu insoniyat tabiatiga xos xususiyat. Qissago'y bu xususiyatni o'zida, farzandlarida, Iblisda ko'radi. Diqqat qilinsa, muallif iblisona «dasturlar» vositasida avlodini

tarbiyalagan jamiyat xarob bo'ladi, degan bir mulohazani uqtiradi. Bu bizning fikr. Holbuki, qissa boshqacha tahlillar uchun ham asos beradi. Adabiyotshunos olim Abdulla Ulug'ov «Qora kitob» qissasi haqida yozadi: «Qissada «Kommonifest», Lenin, Stalin, Gitler, Mussolini, Mao Sze Dun, Pol Pot kabi turli davrlarda paydo bo'lgan «dohiyalar»ning g'oyalari «Qora kitob» deb obrazlashtiriladi»¹. Bu A. Ulug'ovning talqini, ma'lum ma'noda bu fikrda ham asos bor. Ayni chog'da biz ham «Qora kitob»ning o'zini, qissadagi, qahramon tarixi va holatini, o'y-kechinmalarini, jamiyatini aniq bir bosqichga bog'lash fikridan yiroqmiz. Nazar Eshonqul uslubida rang bilan bog'liq ramzlar muhim rol o'ynaydi. Qora rang yozuvchi asarlarining sarlavhalariga ham chiqqan: «Zulmat saltanatiga sayohat», «Qora kitob», «Tun panjaralari». Qora rang, tun bilan bog'liq metaforalar bu asarlarda yetakchilik qiladi. Badiiy adabiyotdagi ijodiy izlanishlar an'anaviy obrazlarning mohiyatini vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ham ko'rsatadi. Qora rang, tun faqatgina yovuzlik yoki jaholat ranglarigina emas, balki ezgulikni qadrlash, inson hayotidagi oydin kunlarni e'zozlash ma'nolarida ham kelishi mumkin. «Nesa odatki, qorong'ulik – yo'qlik emas. Inson oydin kechalari yorug' umidlarini oy yog'dulariga yo'g'irib, yulduzlar nuriga yo'rgaklab oladi; tun – yorug' umidlarning ham doyasi», – deb yozadi adabiyotshunos olim No'mon Rahimjonov. Shu ma'noda Nazar Eshonqulning «Tun panjaralari»² qissasidagi tun tasvirlarida ramziy majoziy ma'nolari bo'rtib turadi. Qissa qahramoni tun qo'ynidan yorug'lik izlaydi.

Qissa go'y – roviy ma'rifatli odam. U ilmiy tadqiqot yozayotgan kishi, jurnalda ishlayotgan ziyoli kimsa. Shuning uchun o'zbek adabiyoti tarixi bilan ham, jahon san'ati va adabiyoti tarixi bilan ham yaxshi tanish. Roviyy dunyo san'atidagi qora ranglar bilan manzaralar chizadigan san'atkorlarni ham yaxshi biladi. «Tun panjaralari»³ qissasining bir sahifasida faqat tun manzaralarini chizgan golland musavviri Gerard Contrast nomini keltirib o'tadi: «Qish va bahor paytlari Gerard Contrastning rasmlariga o'xshab sirli va

¹ *Улугов А. Ўзгараётган адабиёт манзаралари // Шарқ юлдузи, – Тошкент, 1998. 6-сон.*

² *Раҳимҷонов Н. Ко'рсатилган risola.*

³ *Эшонқул Н. Тун панжаралари // Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008. (Bundan keyingi iqtiboslar shu kitobdan olinadi va sahifasi ko'rsatiladi - D.X.).*

biroz qo'rqinchli tuyuladi. Tun qa'riga tikilib qarasang, qip-qizil yog'du oqib yotganday bo'ladi. Biroq Gerard Contrast tunda mash'alani ko'rgan. Mash'alani ko'rgan kishi ertasi nima bo'lishini tasavvur qila oladi» (182-bet). Asar qahramoni bunday tun bag'ridagi yorug'likni anglaydi. Ammo tun panjaralariga qarab turgan qahramon tabiatida muvozanatdan chiqqan holatlar hukmronlik qiladi. Qahramon ma'lum bir fikr atrofida o'ralashib qolmaydi. U o'z xayolida, botinida kechayotgan ruhiy ahvoldan hikoya qiladi. Shuning uchun qissa uslubiy-kompozitsion jihatdan tarqoqdek taasurot beradi. Ammo ong oqimi, qahramonning ong ostida kechayotgan psixologik holati asarga butunlik bag'ishlaydi. Qahramonning o'tmishida, xayolining bir burchaklarida qolib ketgan Robiya ismli bir muhabbat ramzi bor. Uni Tersotaning katta toshyo'li chekkasiga tashlab kelgan. Robiya — qahramonning bolalik xotiralarini qayta tiklash vositasi. Hosila esa, uning hayotida topgan yana bir muhabbati. Bu obraz qahramonning ayni paytdagi hayotini maromga solib turadi.

Qissaga Alisher Navoiyning «Boshimg'a, ko'rki, ne tun kelturibsen...» misralari epigraf qilib olingan. Bu bir jihatdan asarning birinchi muhabbat fojiasi ekaniga dalolat qiladi. Hayot so'qmoqlari aro adasha-adasha ma'lum bir manzilga kelgan qahramon ortiga nigoh tashlaydi. Anglaydiki, u yetib kelgan manzilga qadar ortidagi yagona chiroq yoritib turibdi. Bu o'sha — birinchi muhabbat atalgan chiroq. Qahramon (qissago'y) kayfiyati, o'y-fikrlari, hatto ifoda ohangidagi tragik pafos ham aynan mana shundan kelib chiqadi. Qahramonning ortga qarab yagona haqiqatni anglashi uning fikrchan, ulug'vor insonligidan dalolat beradi. Lekin bosib o'tilgan yo'lni, vaqtni orqaga qaytarish mumkin emas. Fojia shunda. Asardagi tun va u bilan bog'liq tasvirlarni kuzatar ekanmiz, beixtiyor savol tug'iladi: Nega ijodkor tunga murojaat qilyapti? Bizningcha, bu o'rinda savolga javob topish uchun tun bilan bog'liq ramzlarga e'tibor qaratish lozim.

«Tun gulzori ham bir-bir ochila boshladi. Aftidan, tun o'zining ulug'vorligi va go'zalligini bilsa kerak — men mana shunday oqshomlari kimnidir intiq bo'lib kutaman.

Tun shohonali bosda asta-sekin hamma narsani o'z izmiga bo'ysundirmoqda.

Tun xushbo‘y siyohrang atirgulga o‘xshaydi. Bu gulni kim uzib ko‘k qo‘yniga qo‘yib ketdi ekan, men bilmayman» (163–64-bet).

Tasvirdagi tun tasviri, «tunning ulug‘vorligi-yu go‘zalligi» haqidagi, «tun gulzori bir-bir ochila boshladi» kabi tasvirlarning ma’nolarini anglash uchun chuqur tasavvur va mushohadaga berilmay turib, yozuvchining niyatini, ramzlar ortidagi ma’noni anglash qiyin. Yozuvchining o‘zi aytganidek: «Tunning kun kabi, kunning tun kabi cheksizligi bu jarayondagi evrilishlarning bepayonligi va abadiyligini ko‘rsatadi. Inson shu abadiylik ichida yashar ekan, o‘ziga makon yasab olishga urinadi»¹. Inson hamisha yorug‘ xayollar olamida yashasa, sekin-asta nurning mohiyatini unuta boradi. Unutish, xotiraning yo‘qolishi insonni turli ko‘rgiliklarga olib keladi. Shuning uchun ham dunyo adabiyotida tan olinganda holar yovuzlik orqali ezgulikni, zulmatdan yorug‘likni, nafratdan shafqatni, chirkinlikdan tiriklikni, ufunatdan iforni yoritishga harakat qiladi.

Faylasuf Nitshe: «Men – nurman; oh, men tun bo‘lsaydim!

Biroq mening yolg‘izligim shundaki, men nur bilan chulg‘anganman. Oh, qani endi men qora va tun voriy bo‘lsaydim! Men nurlarning yelinlariga tamshanardim»², – deb aytadi. «Tun romga ko‘kraklarini qo‘yib, qora kiygan kampirdek menga sinovchan tikilib o‘tiribdi. Faqat tungina bepayon va mangudir», – deydi qissago‘y (168-b.). Haqiqatdan tunda osmonga razm solib qarasangiz «Samon yo‘li» yulduzlari odamga yo‘l ko‘rsatuvchi ona siymosini esga soladi. Hayot tarzidan bezigan, o‘ziga yo‘l qidirayotgan insonning xayollari «Samo yo‘li» yulduzlariga najotkor tikilishi natijasida paydo bo‘lgan tasavvur boshqacha bo‘lishi mumkin emas-da.

Bugungi adabiyotdagi qarashlar o‘zgaryapti. O‘quvchilar orasida yozuvchi tayyorlab qo‘ygan tayyor ma’nolarnigina axborot tarzida qabul qiluvchilar bilan birga o‘ylashga, tasavvur qilishga moyil kitobxon ham yashayapti. Bir vaqtlar asarlari zararli deb tanqid qilingan adiblar asarlari original yoki tarjima tarzida kitobxonga tuhfa qilinyapti. Demak, bugungi o‘quvchi har doimgidan ko‘ra G‘arb adabiyoti

¹ Эшонқул Н. Тасаввурга дош берсанг бўлди... // Ёшлик. – Тошкент, 2003. 3-сон.

² Нитше. Зардўшт таваллоси (насрий дoston) // Тунги қушиқ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.

bilan kengroq tanisha boshladi. Dunyo adabiyoti bilan yaqindan tanishuv yo‘lidagi tajribalar Nazar Eshonqul ijodida aniq ko‘rinadi.

«Tun panjaralari» qissasi voqelik asosiga qurilgan syujetga ega emas. Ammo syujet chizig‘ini qissa qahramoni tabiatidagi o‘zgaruvchanlik, o‘ychanlik, falsafiy mushohadakorlik ta‘minlaydi. Asar qahramoni «xilvat odam»dir. Xilvatda turib fikrlayotgan, o‘z dunyosiga nazar solayotgan odam. Mana uning e‘tirofi: «Yo‘q, men to‘satdan shunday, hamma narsadan sovgan xilvat odamga aylanganim yo‘q. Men o‘zimni tushunadigan birorta do‘st izlab turli davralarga suqilib kirishga harakat qildim. Lekin hamisha qandaydir beshafqat kuch meni ular orasidan surib chiqarib tashlayverdi» (168-bet). Ana shu xilvatdagi odam o‘y surmoqda. Hayotining mazmuni, baxt va baxtsizlik to‘g‘risida fikr yuritmoqda. Ma‘lumki, fikr hamma vaqt ham bir tekis, silliq va bir chiziq asosiga qurilmasligi, turli to‘siqlarga, chalg‘ishlarga, chekinishlarga uchrashi mumkin. Qissaga ana shunday noan‘anaviy uslubiy tajriba tanlangan.

Qissa qahramoni: «Men hozir baxt va baxtsizlik haqida gapirmoqchiman. Odam hayotda o‘z o‘rmini bilishi uchun bu savollarga javob topishi zarur deb bilaman» (163-bet), — degan iqrorigini aytadi. Ammo asar mavzusi bu bilangina chegaralanib qolmaydi. Boshqa tomonlarga «chalg‘iydi». Bu asardagi o‘ziga xos jihat shuki, qahramon sirlarini tunga aytadi: «Tun mening xilvat boshpanam. Balki yolg‘iz manzirim ham shu yerdir. Men faqat tun qo‘ynidagina, mana shu kichkina qorong‘u burchagimdagi na o‘zimni erkin his etaman, ko‘nglimdagi o‘ylarni, sirlarni unga aytaman» (181-bet). Qissaga o‘yning mana shunday dil rozi, qalb tubidagi ziddiyatlarga to‘la voqeliklar tahlili vaqt o‘tgan sari kengayib boradi.

Hozirgi no an‘anaviy qissalar uslubida janr, syujet, kompozitsiya, gap qurilishi haqidagi nazariy qarashlarning parchalanganini kuzatish mumkin. Nazar Eshonqul uslubida «so‘z to‘zoniga mutloq erk berishga intilish» orqali ham tasvirning ta‘sirchanligini oshirishga erishilmoqda. Gapning bunday ko‘p so‘zligi ma‘lum ma‘noda ko‘nglini bo‘shatayotgan modern qahramon iztiroblariga ham hamohangdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Yangicha uslubdagi qissalarda qanday badiiy kashfiyotlar bo'y ko'rsatmoqda?
2. Adabiy qahramonlarga nom bermaslik, voqealar kechadigan makon va zamoning noaniqligi kabi xususiyatlarni qanday tushunasiz.
3. Bugungi qissalardagi tun, zulmat, qora rangga e'tibor berish qanday badiiy maqsadni ifoda etadi.
4. N. Eshonqulning poetik tiliga xos xususiyatlari haqida misollar yozing.
5. «Qora kitob» qissasidagi roviy va cho'qqi soqolkim, «Qora kitob» nimaning ramzi?
6. «Tun panjaralari» qissasiga Alisher Navoiyning «Boshimg'a, ko'rki, netun kelturib sen...» misralari epigraf qilib olinishiga sizning fikrlaringiz qanday?

Testlar:

1. **«Odamzotdan umid qiladigan narsaning hammasi o'lgan. Hammasi halok bo'lgan».** Parcha qaysi muallifning asaridan olingan?

- | | |
|------------------|------------------|
| A. *N. Eshonqul. | C. Sh. Bo'tayev. |
| B. U. Hamdam. | D. I. Sulton. |

2. **Robiya, Hosila obrazlari ishtirok etgan asarni belgilang.**

- | | |
|------------------------|----------------------|
| A. *«Tun panjaralari». | C. «Momo qo'shiq». |
| B. «Qora kitob». | D. «Urush odamlari». |

3. **«Tun panjaralari» qissasining muallifi.**

- | | |
|------------------|---------------|
| A. *N. Eshonqul. | C. E. A'zam. |
| B. U. Hamdam. | D. O. Muxtor. |

4. **Badiiy asarda qahramonning o'ziga qaratilgan, ichida kechadigan, boshqalarga aytilmaydigan nutqi nima deyiladi?**

- | | |
|--------------------|------------|
| A. *Ichki monolog. | C. Epilog. |
| B. Ta'dil. | D. Pauza. |

5. **Mendan «Men»gacha asari muallifini toping.**

- | | |
|-------------------|----------------|
| A. * N. Eshonqul. | C. I. Sulton. |
| B. U. Hamdam. | D. M.M. Do'st. |

6. **«Boshimg'a, ko'rki, ne tun keltiribsen» misrasi qaysi qissaga epigraf qilib keltirilgan?**

- | | |
|-------------------------|----------------|
| A. * «Tun panjaralari». | C. «Munojaat». |
| B. «Yolg'izlik». | D. «Qora kun». |

7. **«Men azal-azaldan odamlar yashab kelgan va endi tashlab ketilgan uyga o'xshayman».** Parcha qaysi asardan olingan?

A. «Tun panjaralari».
B. «Belbog'».

C. «Yolg'izlik».
D. «Sho'rodan qolgan odamlar».

Adabiyotlar:

1. Адабий турлар ва жанрлар. 3 томлик. 1-том. — Тошкент: Фан, 1991.
2. *Жўраев Т.* Онг оқими модерн. — Фарғона, 2009.
3. *Жўрақулов У.* Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
4. *Йўлдошев Қ.* Ёниқ сўз. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
5. *Мамажонов С.* Лирик олам, эпик қўлам. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
6. Мустақиллик даври адабиёти. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006.
7. *Нитце.* Зардўшт таваллоси (насрий дoston) // Тунги Қушиқ. (И.Фафуров таржимаси) — Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.
8. *Норматов У.* Умидбахш тамойиллар. — Тошкент: Маънавият, 2000.
9. *Расулов А.* Бадийлик — безавол янгилик. — Тошкент: Шарқ, 2007.
10. *Сатторова Г.* Миллий характер ва бадий талқин. — Тошкент: ФАН, 2007.
11. *Эшонқул Н.* Мендан «мен»гача. — Тошкент: Akademnashr, 2014.
12. *Эшонқул Н.* Ялпиз ҳиди. — Тошкент: Шарқ, 2008.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978.
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Адабий турлар ва жанрлар. Уч томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1991.
4. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
5. Афанасев А. Дерево жизни. – Москва: Современник, 1982.
6. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975.
7. *Белинский В.Г.* Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955.
8. *Бобоев Т.* Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
9. *Болтабоев Н.* Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992.
10. *Веселовский А.Н.* Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989.
11. *Головкин В.М.* Поэтика русской повести. – Саратов: 1992.
12. *Журақулов У.* Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.
13. *Журақулов У.* Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
14. *Йўлдошев Қ.* Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
15. *Каримов Б.* Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011.
16. *Каримов Б.* Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
17. *Каримов Н.* Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент: YANGI NASHR, 2010.
18. *Манин Ю.* Поэтика Гоголя. – Москва: Художественная литература, 1988.
19. *Матёқубова Т.* Поэтик идрок ва маҳорат. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011.
20. Мумтоз Шарқ поэтикаси. Нашрга тайёрловчи Н. Болтабоев. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
21. Мустақиллик даври адабиёти – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006.
22. *Назаров Б.* Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985.
23. *Норматов У.* Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000.
24. *Расулов А.* Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.
25. *Rasulova U.* Hozirgi adabiy jarayon: Badiiy nasr poetikasida ritm. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2012.
26. *Солижонов Й.* Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002.
27. *Sulton I.* Adabiyotnazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
28. *Тамарченко Н.Д.* // Теория литературы / Роды и жанры. – Москва: ИМТИ РАН, 2003.

29. *Фитрат*. Танланган асарлар, 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006.
30. *Халдоров Д.* Ижод моҳияти – услуб хосияти. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017.
31. *Хализев В.Е.* Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2002.
32. *Шермуродов Т.* Жозиб изҳор излаб. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
33. *Эшонқул Н.* Мендан «мен»гача. – Тошкент: Akadem nashr, 2014.
34. *Қаҳрамонов Қ.* Адабий танқид янгиланиш жараёнлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
35. *Қуронов Д.* ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akadem nashr, 2010.
36. *Қўчқорова М.* Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011.
37. *Ҳамдамов У.* Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.

ISBN 978-9943-5222-3-7



9 789943 522237